

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH FAKULTETI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

\_\_\_\_\_B.Abdushukurov

“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2018-y

5111200 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi IV kurs 404-guruh talabasi  
**Kamoldinova Mushtariyning “Algomish” dostonini o'qitishda zamonaviy  
pedagogik texnologiyalardan foydalanish” mavzusida yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:

\_\_\_\_\_M.Abdullayeva  
filologiya fanlari nomzodi

Taqribchilar:

\_\_\_\_\_T. Ernazarov  
f.f.d., professor

\_\_\_\_\_M.To'rayev

Alisher Navoiy nomidagi Tosh DO'TAU qoshidagi  
academik litsey ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”  
Axborot va zamonaviy pedagogik  
texnologiyalar kafedrasi mudiri,  
f.f.d. \_\_\_\_\_ S.Muhammedova  
“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2018-y

**TOSHKENT-2018**

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. “Algomish” dostonining o‘rganilish tarixi.....</b>	<b>10</b>
1.1. “Algomish” dostonining yaratilish tarixi va variantlari.....	10
1.2. Qahramonlik dostonlarining o‘ziga xosligi: milliy ruh va an’analar ..	20
<b>II bob.“Algomish” dostonini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....</b>	<b>34</b>
2.1. Doston kompozitsiyasini o‘rganishda innovatsion yondashuv.....	36
2.2. Dostondagi obrazlar tizimini o‘rganishda interaktiv metodlardan foydalanish.....	46
2.3. Muammoli ta’lim texnologiyalari orqali dostondagi ziddiyatlarni tahlil qilish.....	60
<b>III bob. Ishning amaliyotga tatbiqi.....</b>	<b>68</b>
3.1. Tajriba-sinov natijalari.....	68
3.2. Ochiq dars ishlanmasi.....	72
<b>Xulosa.....</b>	<b>84</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati .....</b>	<b>87</b>
<b>Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha-inglizcha lug‘ati .....</b>	<b>89</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliji.** O‘zbek xalqi boy merosga ega. Adabiy merosimizning asosiy qismini xalq og‘zaki ijodi tashkil qiladi. Og‘zaki poetik ijodning badiiy jihatdan mukammali va hajman yirigi o‘zbek xalq dostonlaridir.

O‘zbek xalq dostonlari o‘zbek folklorshunosligida ilmiy ko‘lamda fanning nazariy yo‘nalishi bo‘yicha tadqiq qilingan bo‘lsa ham ularni ta’lim tizimida o‘rganish, ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablari darsliklarida o‘qitish uslubiyati monografik yo‘nalishda o‘rganilmagan. Shu sababli xalqimiz ma’naviyati, qadriyati, urf-odatlari, yashash tarzi bilan bog‘liq xalq dostonlarini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘rganish va bu sohada biror ilmiy innovatsion texnologiya joriy qilish bugungi kun adabiyot o‘qitish metodikasining dolzarb masalalaridan sanaladi.

Xalq og‘zaki ijodiyotining gultoji bo‘lgan “Alpomish” dostonidan ayrim parchalarning umumiy o‘rta ta’lim maktab darsligiga kiritilishi yosh avlodni ona Vatanga, ajdodlar qadriyatiga sadoqat, milliy urf-odatlarimizga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Alpomish” dostonining 1000 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan bayram tantanalarida aytgan quyidagi fikrlari barchamiz uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi: “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘s-t-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi<sup>1</sup>”.

Ma’lumki, 1993-yildan O‘zbekistondagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot fani bo‘yicha yangi dastur asosida o‘quv mashg‘ulotlari uyuştirilmoqda. 1999-yildan Respublika Vazirlar Mahkamasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” asosida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini ochish haqida qaror qabul qildi. Mazkur qarorning hayotga tatbiq etilishi natijasida xalq og‘zaki poetik ijodi kursini alohida nazariy kurs sifatida o‘rganish masalasi amalga oshmoqda. Bu esa bo‘lajak adabiyot o‘qituvchisiga o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodini bo‘lg‘usi yosh mutaxassis

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. “Алпомиш” достонининг 1000 йиллигига бағишиланган тантанали маросимда сўзлаган нутқи. // Халқ сўзи, 1999, 9-ноябр.

sifatida mukammal o‘rganish mas’uliyatini yuklaydi. Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi sifatida og‘zaki ijod janrlari va asoslarini o‘rganadi va shu asosda milliy mafkura tamoyillarini egallaydi. Ikkinchidan, bir necha yildan so‘ng umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot fani bo‘yicha ta’lim beradigan o‘qituvchi sifatida og‘zaki ijod namunalarini tahlil etish, badiiy asarlar mohiyatini o‘quvchilarga tushuntira olish ko‘nikmasini hosil qiladi.

Umumiyl o‘rta ta’lim maktablari o‘quv dasturiga kiritilgan xalq dostonlarini o‘qitish yuzasidan olib borilgan o‘quv-uslubiy ishlar tahlili ularning umumiy yoki xrestomatik yo‘nalishda yoritilganligidan dalolat beradi. Bugungi kun ta’lim tizimida ro‘y berayotgan global o‘zgarishlar esa xalq dostonlarini maxsus va har tomonlama o‘rganishni taqozo qiladi. Zero, xalq dostonlari xalqimiz tarixi, milliy ma’naviyatining o‘zagini tashkil qilar ekan, yosh avlodni ta’lim va tarbiyasida o‘ziga xos o‘ringa egadir. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “... inson o‘zini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, ulg‘aya boradi. Bu ildiz qanchalik kerak bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo‘ladi”.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon boshqa ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim sohasida ham bir qator ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I. Karimovning “Barkamol avlod yili” davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoyishiga binoan “...o‘quv jarayoniga yangi kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarini elektron darsliklar hamda multimedia vositalarini keng joriy etish hisobiga mamlakat maktablari, kasb-hunar kollejlari va litseylarida, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim berish sifatini tubdan yaxshilash, ta’lim muassasalarining o‘quv laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o‘qituvchilar va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini moddiy hamda ma’naviy rag‘batlantirishning samarali tizimini shakllantirish... ” ko‘zda tutilgan<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup> Ўша манба, 2009-йил, 10-декабр сони.

Shundan kelib chiqib, umumiy o‘rtta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida adabiyot o‘qitishning yangi innovatsion tizimini yaratish adabiyot o‘qitish metodikasi fanining muhim vazifalaridan biridir. Mazkur BMI ayni shu maqsadni amalga oshirish yo‘lida xizmat qiladi. Jumladan, “Alpomish” dostonini o‘rganishda interfaol metodlardan foydalanishni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bugungi zamonaviy pedagogik texnologiyalar taraqqiy etayotgan davrda “Alpomish” dostonini interfaol usullar orqali yangicha nuqtai nazardan amaliy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida, akademik-litsey va kasb-hunar kollejlarida “Alpomish” dostonini o‘rganishda o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanishni maqsad qildik.

Xalq dostonlarining sara namunasi bo‘lgan “Alpomish” dostoni xalqimizning beba ho ma’naviy boyligi hisoblanib, yosh avlodni komil inson qilib shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli o‘rtta mакtab o‘quv dasturiga kiritilgan xalq og‘zaki ijodi janrlarini chuqur va har tomonlama o‘rganish bir tomonidan, o‘quvchilarga xalqimiz tarixi, ma’naviyati va og‘zaki ijodiga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otsa, ikkinchi tomonidan ajdodlar kabi yurtga, Vatanga, xalqiga bo‘lgan mehr-muhabbatni yanada kuchaytiradi. Atoqli xalq baxshisi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan “Alpomish” dostoni xalqimizning ana shunday noyob adabiy meroslaridan biridir.

**Mavzuning o‘rganilish darajasi.** Xalq ijodini o‘rganish – xalqning tarixi, urf-odati, an’analari, o‘y-kechinmalari, buguni va kelajagini tadqiq etish demakdir. Unda millatning o‘zini anglashi, o‘zligini namoyon qilish xislatlari, intilishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan. Muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi”<sup>3</sup>. Ana shunday

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma’naviyat, 2008, 30-bet

yuksak ma’naviyatimizning asosi hisoblangan xalq og‘zaki ijodini tom ma’noda anglash uchun, uning mohiyatini umumiy o‘rtta ta’lim o‘quvchilariga tushuntirish va singdirish uchun uning g‘oyaviy-badiiy va janr xususiyatlari, poetik shakllanishi, tarixiy ildizlari hamda mifologik asoslarini atroflicha tadqiq etish lozim bo‘ladi. Xalq ijodini o‘rganishda bunday muayyan yondashuv uning jonli og‘zaki ijro sharoitida o‘ziga xos ravishda yashash, tarqalish xususiyatlarini, uzoq asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog‘liq ayrim hodisalarining aks etish darajasi, aniq asarlar syujet tizimida tutgan o‘rni, badiiy vazifasi hamda mohiyatini alohida-alohida tadqiq etishni talab qiladi.

Jahon ma’naviyati va madaniyatiga munosib hissa qo‘sghan, o‘tmishi yuqori saviyada o‘tgan xalqlar og‘zaki ijodida butun dunyo folklorshunos olimlari muttasil o‘rganayotgan asarlar bor. Forsaytlar haqidagi sagalar, nardlar, manas shular jumlasidandir. “Alpomish” ham ana shunday asarlar qatorida munosib o‘ringa ega. Shuning uchun ham folklorshunoslikda “Alpomish”ning xalq qahramonlik eposi sifatidagi tarixiy ahamiyatini atroflicha o‘rganganlar. Hamid Olimjon<sup>4</sup>, Hodi Zaripov, M.Saidov<sup>5</sup>, To`ra Mirzayev, Malik Murodov, Bahodir Sarimsoqov, Mamatqul Jo‘rayev kabi o‘zbek olimlari mazkur asarni ijtimoiy hayotning badiiy ijoddagi ifodasi yo‘nalishida tadqiq etganlar<sup>6</sup>. Doston haqidagi yangi fikr B.Sarimsoqovning “Alpomish” eposi haqida uch etyud<sup>7</sup> hamda “Alpomish” klassik epos namunasi” maqolalarida qayd etildi<sup>7</sup>. Xususan, bu maqolada, avvalo, turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqining mustaqil xalq sifatidagi o‘ziga xos belgilari birinchi navbatda, qahramonlik eposida aks etishi qonuniyati kashf etildi. Natijada olimlar tomonidan doston o‘rganilar ekan, “Alpomish” o‘zbek xalqi tarixining badiiy ifodasi san’atda aks etgan va og‘zaki ijodda muhrlangan hujjat ekani to‘liq isbotlandi. Badiiy san’atda shunday asarlar borki, ularni o‘rganish ijod samaralarini tahlil qilish bir necha avlodlar sa’y-harakatlari bilan ham o‘z nihoyasiga yetmaydi. Millatni anglash

<sup>4</sup> Ҳамид Олимжон. Муқаммал асарлар тўплами. Ўн томлиқ. - Тошкент: Фан, 1981-йил.

<sup>5</sup> Сайдов М. Ўзбек халқ достончилигига бадиий маҳорат масалалари. - Тошкент: Фан, 1969.

<sup>6</sup> Қаранг: Ҳамид Олимжон. Асарлар, 10-жилдлик; Ҳ.Зарипов. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси.; Т.Мирзаев. “Алпомиш” достонининг ўзбек варианatlари. - Тошкент, 1989.

<sup>7</sup> Саримсоқов Б. “Алпомиш” - классик эпос намунаси. Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 1999, 3-9-бетлар.

uchun uning ruhiyatini bilish lozim. Millatning o‘ziga xosligini tayin etadigan eng katta va asosiy belgi til bo‘lsa, uni unutgan odamda millat tuyg‘usi bo‘lmaydi. “Alpomish” dostoni o‘zbekning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadir.

“Alpomish” dostonining turkiy dostonlar qatorida tutgan o‘rni, uning epik timsollar tizimi tadrijidagi mavqeい, jahon mifologik tafakkur tajribasining “Alpomish” dostoniga ko‘rsatgan ta’siri va undan o‘rganilgan jihatlar, doston sujetining yaratilishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy, etnik-maishiy omillar, asardagi timsollar tizimi va boshqalar tekshirilgan. Bevosita doston badiiyatini o‘rganishga qaratilgan ishlar sirasiga M.Saidovning “O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari” (T.,1969), I.Yormatovning “O‘zbek xalq eposi badiiyati (“Alpomish” dostoni asosida)” (T.,1993), yana shu muallifning “O‘zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati” (T., 1994), Q.Yo‘ldoshevning “Alpomish”talqinlari (T., 2002) kabi ishlarni kiritish mumkin. Ammo dostonni o‘qimishlilagini ta’minlagan, xalqimiz qalbidan chuqur o‘rin olgan jihatni uning milliy ruhiyatimiz bilan chambarchas bog‘liqligidadir. Holbuki, “Alpomish” millat uchun faqat o‘tmish emas, hozir va kelajak hamdir. U- barcha badiiy buyuk asarlar singari abadiyatga daxldor. Shuning uchun asarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tadqiq etish adabiyotshunosligimizning kechiktirib bo‘lmas masalalaridan biridir.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Ushbu tadqiqotning maqsadi umumiyl o‘rta ta’lim maktab o‘quv dasturiga kiritilgan “Alpomish” dostonini o‘rganishda ta’lim tizimining noan’anaviy shakllaridan foydalangan holda yangi pedagogik texnologiyaning turli vositalarini ijodkorlik bilan qo‘llab, xalq og‘zaki ijodining ijtimoiy-tarbiyaviy vositaligini, muhimmi, o‘quvchilarda estetik didni shakllantirishda muhim badiiy ahamiyatga egaligini ochib berishdir. Tadqiqotda maqsadning bunday qo‘llanishi uning vazifalarini ham aniq belgilab beradi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

- “Alpomish” dostonini xalqimizning boy adabiy merosi va uning tarkibiy qismi sifatida o‘rganish;

- dostonning janr xususiyatlarini tushuntirish va shu orqali o‘quvchilarga og‘zaki ijod an’analari haqida kengroq tushuncha berish;
- o‘quv dasturiga kiritilgan “Alpomish” dostonini muayyan dostonchilik maktablari doirasida o‘rganish va shu orqali baxshi-shoirlar o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlarini, barqaror ijro an’analarni va ijodiy novatorlikni o‘rganish;
- “Alpomish” dostonining o‘zbek folklorida tutgan o‘rnini aniqlash;
- xalq baxshi-shoirlarining hayoti va ijodini hamda u mansub bo‘lgan dostonchilik maktabining o‘ziga xos yo‘nalishlarini tahlil qilish;
- doston badiiyatini, sujeti va kompozitsiyasini o‘rganishda yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish;
- darsning jonli va qiziqarli o‘tishini ta’minlashda AKT vositalaridan unumli foydalanish;
- “Alpomish” dostonini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish;
- Dars sifatini oshirish va samaradorligini aniqlashda jadvallar, tarqatma materiallar va test savollari tuzish;
- dostonni o‘rganishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatini tadqiq etish.

**Tadqiqotning obyekti va predmeti.** Mazkur tadqiqotda xalq og‘zaki ijodini yangicha pedagogik tafakkur tamoyillariga tayanib o‘rganish masalasi tadqiqot predmeti sifatida o‘rganildi.

Tadqiqot uchun asosiy ob’yekt sifatida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan “Alpomish” dostoni hamda umumiyligi o‘rta ta’lim maktabining 9-sinf adabiyot darsligida berilgan dostondan parchalar olindi. Fikrimizni rivojlantirish, ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida oliy o‘quv yurtlari uchun K.Imomov va boshqalar muallifligida tayyorlangan “Xalq og‘zaki poetik ijodi” darsligi, O.Madayev va T.Sobitova muallifligidagi akademik litseylar uchun “Xalq og‘zaki poetik ijodi” darsligi va yangicha pedagogik texnologiyalar, ta’limning zamonaviy ilmiy-metodik usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov va Sh. M. Mirziyoyevning ma’naviyat, ma’rifat, milliy va umumbashariy qadriyatlar to‘g‘risidagi fikrmulohazalari, milliy adabiyotning shakllanish tarixi hamda “Alpomish” dostoni bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlardagi ilmiy-nazariy qarashlar BMIga metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalar asosida tahlillar amalga oshirildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** “Alpomish” dostonini ta’lim tizimida o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turli yo‘nalishlaridan samarali foydalanish, ilmiy tavsiyalar berish bilan belgilanadi. Tadqiqot uchun tanlangan manbalarga, folklorshunoslikda erishilgan so‘nggi yutuqlarga, ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda tahlil etiladi. “Alpomish” dostonini o‘qitishning innovatsion texnologiyalari ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari, dars jarayonida o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning ijodkorligi, faolligini oshirish, mashg‘ulot samaradorligini kuchaytirish, o‘quvchilarda mavzu uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni internet tarmog‘idan izlash va topish borasida malaka va ko‘nikmalarni hosil qilishga erishiladi. Olingan ma’lumotlarni darslikdagi ma’lumotlar bilan solishtirib, xulosa chiqarish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash voqeа va hodisalarga shaxsiy munosabatini bildira olishni shakllantiradi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** BMI dan chiqarilgan xulosalar va natijalar uning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ishning yakuniy xulosalari, bir tomondan dostonni o‘qitish uslubiyati samaradorligini oshirish uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. O‘qituvchi – pedagoglar uchun metodik qo‘llanma vazifasini o‘taydi. Uslubiy qo‘llanmalar, uslubiy tavsiyalar yaratish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi tuzilishiga ko‘ra kirish, III bob, umumiylar xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## I bob. “Alpomish” dostonining o‘rganilish tarixi

### 1.1. “Alpomish” dostonining yaratilish tarixi va variantlari

9-sinf adabiyot darsligida “Alpomish” dostonini o‘rganish uchun DTS va dastur talabiga ko‘ra 5 soat vaqt ajratilgan va mazkur mavzuni o‘rganishning samaradorligini oshirish maqsadida mavzular har soatga rejalashtirilgan. Xalq dostonlarining sara namunasi bo‘lgan “Alpomish” dostoni xalqimizning beba ho ma’naviy boyligi hisoblanib, yosh avlodni komil inson qilib shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli o‘rta maktab o‘quv dasturiga kiritilgan xalq og‘zaki ijodi janrlarini chuqur va har tomonlama o‘rganish bir tomonidan, o‘quvchilarga xalqimiz tarixi, ma’naviyati va og‘zaki ijodiga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otsa, ikkinchi tomondan ajdodlar kabi yurtga, Vatanga, xalqiga bo‘lgan mehr-muhabbatni yanada kuchaytiradi. Bu mas’uliyatli vazifa zimmasida bo‘lgan o‘qituvchilardan jiddiy tayyorgarlik ko‘rish talab qilinadi. Shu boisdan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi “Alpomish” dostonini o‘rgatishda e’tibor berishi kerak bo‘lgan jihatlar haqida fikr yuritmoqchimiz.

“Alpomish” dostoni qadimiylar qahramonlik eposining yorqin namunalaridandir. Epik mazmunning qahramonlik xarakteriga ega bo‘lishi uning bosh xususiyati hisoblanadi. Chunki, dostonning butun mohiyati va asosiy yo‘nalishini ana shu xususiyat belgilaydi. V.G.Belinskiyning ta’kidlashicha, “xalqning go‘daklik zamonlarida uning hayoti ko‘proq botirlikda, qahramonlikda ifodalanadi”. Shuning uchun ham qadimiylar qahramonlik eposi “xalqning faqat go‘daklik davrlarida ... uning kuch-qudrati va toza faoliyati faqat qahramonlik g‘alabalarida ko‘ringan zamonlardagina paydo bo‘lishi mumkin”<sup>8</sup>.

Ko‘chmanchilik hayoti va patriarxal-urug‘chilik munosabatlari bir darajada saqlanib kelayotgan zamonlarda yaratilgan, jamiyat va inson hayoti masalalarini o‘ziga xos reallikda- qahramonlik va go‘zallik haqidagi xalq ideallari doirasida kuylagan “Alpomish” dostoni ham turkiy xalqlar patriarxal hayotidagi “epik bosqich”ning poetik ko‘zgusidir. Doston bir qancha turkiy va ularga yaqin yashagan ayrim turkiy bo‘lmagan xalqlar doirasida juda keng tarqalgan. Uning o‘zbek,

<sup>8</sup> Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1955, 167-173-бетлар.

qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston holida; tojik, tatar, boshqird, O‘rta Osiyo arablari versiyalari ertak va rivoyatlar tarzida mashhurdir. O‘rta asr o‘g‘uz eposining muhim yodgorligi “Kitobi Dada Qo‘rqu” tarkibidagi “Bamsi Bayrak” asari o‘zining syujeti va kompozitsion qurilishi jihatidan “Alpomish” dostoniga juda ham yaqin turadi.<sup>9</sup> O‘qituvchi shu o‘rinda “Alpomish” dostonining variantlari va yaratilish tarixi haqida ma’lumot bermog‘i lozim.

“Alpomish” dostonining o‘zbek shoir va baxshilar tomonidan kuylanib kelgan va yozib olingan 30 dan ortiq varianti bor<sup>10</sup>. Ana shu varintlari orasida eng mukammali va badiiy jihatdan pishiq ishlangani Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan variantdir. Bu variant 1939- yilda Hamid Olimjon so‘zboshisi bilan nashr etildi. Turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlarda ham “Alpomish” dostonining turli variantlari bor. “Alpomish” dostonining kurtaklari, patriarchal qabilalar hayotiga borib taqaladi. Dostonda ibridoiy jamoa tuzumining yemirilishi, sinfiy ziddiyatlarning chuqurlashuvi, qabila kambag‘allarining qul qilinishi hamda feudal munosabatlarining shakllanishi tasvirlangan. Ilmiy adabiyotlarda “Alpomish” dostoni XVI asrda to‘la shakllangan deb ko‘rsatiladi.

“Alpomish” dostonining syujet sostavi va asosiy motivlariga diqqat qilsak, unda patriarchal-urug‘chilik munosabatlari va shu hayot tarzini tasvirlash asosiy o‘rin tutadi. Qolaversa, unda ayrim urug‘ oqsoqollarining hukmronlikka intilishidan iborat rivojlanmagan feudal munosabatlar tasviri ham mavjud. Dostonda aks etgan bunday ijtimoiy hayot elementlari uning yaratilish tarixini belgilash uchun muhim ahamiyatga ega. Shuni ham ta’kidlash kerakki, patriarchal-urug‘chilik munosabatlarining yemirilishi va feudalizmning tug‘ilish jarayoni hamma yerda bir vaqtida va bir xilda sodir bo‘lgan emas. Bu o‘tish jarayoni ayrim yerlarda hatto o‘rta asrlargacha davom etdi. Dostonda tasvirlangan bunday ijtimoiy hayot tarzi va undagi bir qator motivlar tahlili orqali H.T.Zarifov “Alpomish” dostoni ko‘chmanchi-chorvador qo‘ng‘iroq urug‘i orasida patriarchal-urug‘chilik munosabatlari yemirila boshlagan davrda, mo‘g‘ullar istilosidan avval, Sirdaryoning

<sup>9</sup> Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б. ва бошқалар. Ўзбек халқ оғзаки поетик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990, 252-бет.

<sup>10</sup> Тўра Мирзаев “Алпомиш” дostonining ўзбек вариантлари. - Т.: Фан, 1968.

quyi oqimlari va Orol dengizi atroflarida yuzaga kelgan, degan xulosaga keldi. Bu xulosada jiddiy asos bor. Chunki, doston mazmuni, undagi obrazlar sistemasi, shuningdek, dostonning muayyan joylar bilan bog‘lanishi va xalqimizning etnogenetik taraqqiyoti bu fikrni tasdiqlab turibdi. Shundan kelib chiqib, doston dastlab ko‘chmanchi-chorvador qo‘ng‘iroq qabilasi orasida X-XI asrlarda yaratildi, deyish mumkin. Qo‘ng‘iroq qabilasining turli teritoriyalarga siljishi bilan doston boshqa urug‘ va elatlarga ham o‘tib, ularning epik traditsiyalari asosida qayta ishlana borib, juda keng tarqaldi va nihoyat, uning yaratilishida ota-bobolari ishtirok etgan har bir xalqning “o‘z” eposiga aylandi. Qo‘ng‘iroq urug‘i bir qancha turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklar, qoraqalpoqlar, qozoqlarning etnogenetik jarayonida muhim o‘rin tutganligini hisobga olsak, dostonning o‘zbek versiyasi XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida og‘zaki epik an'anada “yangilanish” jarayonini o‘z boshidan kechirdi va to‘la shakllandi. Biroq, uning asosi, undagi bir qator motiv va tushunchalar nihoyatda qadimiyydir.<sup>11</sup>

Ammo, Alpomish qaysi davrda yaratilgan bo‘lmasin, unda xalq tarixi va kurashi, ozodlik uchun intilishi, xalq urf-odatlari o‘zining yorqin badiiy ifodasini topgan. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqi orasida ikki versiya va ko‘plab variantlarda juda keng tarqalgan. Sovet davrida uning variantlari 28 xalq baxshisidan 33 marta ( to‘la teksti, parcha, mazmuni) yozib olindi. “Alpomish” dostonining to‘la variantlari yozib olingan baxshilar orasida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Berdi baxshi, Bo‘ri Sodiq o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Umir Safar o‘g‘li kabi yetakchi dostonchilar bor. O‘qituvchi shu o‘rinda o‘quvchilarga dostonchilik mакtabining o‘ziga xos xususiyatlari va doston kuylash yo‘nalishi haqida ham tushuncha bermog‘i lozim.

Dostonchilik maktabining har birida o‘zlari mukammal bilgan va shu maktabning faxri bo‘lgan dostonlari bo‘lgan. “Alpomish” dostoni “Bulung‘ur” dostonchilik mакtabi uchun qanchalik qadrli bo‘lsa, “Ravshan” dostoni “Qo‘rg‘on”

<sup>11</sup> Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поетик ижоди. - Тошкент: Ўқитувчи, 1990, 253-254-бетлар..

dostonchilik maktabi uchun shunchalik aziz hisoblangan. Odatda, baxshi-shoirlar shogird yetishtirish uchun dastlab so‘zga chechan, do‘mbira cherta oladigan, dostonlarni farqlay biladigan yoshlardan eng iqtidorlilarini tanlab olganlar. Ularga dastlab dostonning mazmunini, keyin esa uning she’riy qismlarini yod oldirganlar. O‘zlari bilan doimiy ravishda dostonchilik kechalariga olib borganlar. Shu asnoda, shogird ustozdan dostonning qaysi kuyga mos holda aytishini, she’riy tizimlarini o‘z o‘rniga qo‘ya olishni o‘rgangan va o‘zi ham 5-6 dostonni davralarda bemalol kuylagandan so‘nggina ustozidan oq fotiha olgan, shundan keyin baxshi sifatida tanilgan.

O‘qituvchi ayni shu o‘rinlarda o‘quvchilarga ta’lim tizimidagi farqlarni ko‘rsatib, dostonchilikni o‘rganish yozuv bilan emas, balki og‘zaki muloqot orqali amalga oshganligini tushuntirib o‘tmog‘i lozim. Shu o‘rinda oddiy baxshilar 5-10 ta, iqtidorli deb tan olingan baxshilar 15-20 ta, iste’dodi yuksak darajadagi, quvvayi hofizasi cheksiz bo‘lgan baxshi-shoirlar 35-40 ta dostonni yoddan aytganlar. O‘qituvchi dastlab dostonning, ya’ni “Alpomish”ning hajm jihatdan g‘oyat ulkanligini, she’riy tizimining o‘zi ming-minglab misralardan iborat ekanligini o‘quvchilarning ko‘z o‘nggiga keltirib, shunday dostonlardan 40 dan ortig‘ini kuylagan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Islom shoirlarning iste’dodi tengsiz ekanligini ta’kidlashi lozim. Doston kuylash tartibi ham o‘ziga xos an’ana tusiga kirgan. Bu haqida o‘qituvchi o‘quvchilarni xabardor qilar ekan, bugungi kun bilan o‘tmishning farqini ko‘rsatmog‘i lozim. Dostonchilik kechalari elektr nuri bo‘lmagan , radio, televideniya haqida tushuncha ham mavjud bo‘lmagan bir davrda xalqning ma’naviy ozuqa beruvchi vositasi bo‘lgan. Yosh avlod ham bunday kechalarda baxshilar tomonidan yaratilgan badiiyatdan saboq olishgan. O‘qituvchi darsda shularni ta’kidlar ekan, bugungi kunda ularning badiiy, estetik ahamiyati o‘zgacha ekanligini dostondan olingan parchalar vositasida dalillaydi. Baxshilar mahorati shu dostonni ijro etish darjasini bilan o‘lchangan. Ustoz dostonchilar o‘z san’atlarini ko‘pincha “Alpomish”ni kuylash bilan ko‘rsatganlar, hurmat topganlar. Muhimi shundaki, o‘zbek millatining hayoti bir tekis ravnaq topgan paytda “Alpomish” dostonini kuylashga

e’tibor katta bo‘lgan. O‘quvchilarning diqqatini yanada darsga jalb etish, doston aytish an’analari bilan chuqurroq tanishtirish maqsadida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga “Alpomish” dostonining baxshilar tomonidan kuylangan variantini audio yoki video shaklda namoyish qilishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida ta’limda innovatsion ko‘rsatmalilikni aks ettiradi.

“Alpomish” turkiy xalqlarning mushtarak dostoni bo‘lganligi uchun uning namunalari o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy xalqlari epik an’analarda doston holida; tatar, boshqa xalqlari orasida esa, ertak va rivoyatlar tarzida, yana aniqrog‘i, oraliq shaklda saqlanib qolgan hamda bu xalqlarning til xususiyatlariga ko‘ra, “Alpomish”, “Alpamis”, “Alpamis botir”, “Alip-Manash”, “Alpamsha”, “Alpamisha va Barsin hiluv” kabi nomlar bilan yuritiladi. Shuningdek, Panjikent atroflari, Qashqadaryo viloyatining Vargonza, Jeynov qishloqlaridan o‘zbek dostonchilik an’analari ta’sirida yuzaga kelgan hamda jiddiy transformatsiyaga uchragan tojikcha va arabcha variantlari ham yozib olingan. Yozma manbalar orqali bizgacha yetib kelgan o‘rta asr o‘g‘uz eposi “Dada Qo‘rqtut kitobi”ning uchinchi bo‘yi (dostoni) — “Bamsi Bayrak” o‘zining syujet voqealari jihatidan “Alpomish”ga ancha yaqin turadi.<sup>12</sup> O‘qituvchi slayd orqali qardosh xalqlarda saqlanib qolgan dostonning variantlari bilan birga rasmlarini o‘quvchilar e’tiboriga taqdim etadi. Shu orqali ta’limda ko‘rgazmalilikdan o‘rinli foydalananadi.

Bir syujetdagi bir dostonning bir necha xalqlarda mavjudligi ularning milliy o‘ziga xosligini inkor etmaydi. Chunki, bu dostonlarning qadimiy tarixiy-hayotiy asoslari bir bo‘lsa-da, ularning har biri keyingi taraqqiyotida o‘zлari mansub xalqning epik an’analari doirasida rivojlandi, og‘zaki ijod va ijro sharoitlarida yashashda davom etdi va faqat keyingi davrlardagina shunday sharoitlarda folklorshunoslar tomonidan yozib olindi. Shuning uchun ham uning versiya va variantlariga ega bo‘lgan har bir xalqning unga o‘zining milliy eposi sifatida munosabatda bo‘lishi tabiiy bir holdir.

---

<sup>12</sup> [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)- “Alpomish” dostoni haqida.

“Alpomish” dostoni o‘zbek variantlarining to‘planishi, nashr etilishi va o‘rganilishi tarixi qiziqarlidir<sup>13</sup>.

Dostonning badiiy jihatdan eng mukammal varianti Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan 1928-yilda Mahmud Zarifov tomonidan yozib olingan nusxasi hisoblanadi. Uning birinchi qismi qisqartirilgan holda nashr etildi.<sup>14</sup> Xuddi shu paytdan boshlab Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantidan parchalar maktab xrestomatiyalari, o‘quv qo‘llanmalari, turli to‘plamlarda muntazam ravishda nashr etilib kelinmoqda. Shuningdek, shu yili jiddiy qisqartirilgan holdagi Hamid Olimjon nashri ham yuzaga keldi. Shoir Hamid Olimjon dostonni nashrga tayyorlashda uni qariyb yarmigacha qisqartirgan. Ammo, bu qisqartirish shu darajada bilim va san’atkorlik bilan amalga oshirilganki, bu holat dostonning yaxlitligiga putur yetkazmagan. Shoir doston matniga biron-bir so‘z qo‘shtmagan, doston tilini tahrir qilmagan, balki undagi mavjud imkoniyatlardan mirishkorlik bilan foydalangan, ya’ni uzundan uzoq monolog va dialoglardan iborat she’riy matndagi badiiy zaif misralarni qisqartirish bilan doston sujeti voqealarini to‘la saqlagan. Nashrga tayyorlovchi olti ming misraga yaqin matnni qisqartirgan bo‘lsa-da, dostonni o‘qish davomida bu narsa deyarli sezilmaydi. Shuningdek, shoir nashrga kattagina so‘zboshi yozib, uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil etdi. Dostonning yaratilganligiga 1000 yil to‘lganligi haqidagi dastlabki mulohazalar ham Hamid Olimjonga tegishlidir. Shuning uchun ham bu nashr madaniyatimiz tarixida katta voqealari bo‘ldi va xalq dostonlarini nashr etishdagi ijobiy tajriba sifatida o‘z ahamiyatini hanuz yo‘qotgan emas.

Marhum Hamid Olimjon nomidan dostonning ikkinchi va uchinchi nashrlari chop etildi.<sup>15</sup> “Alpomish” dostoni nafaqat og‘zaki ravishda, balki Hamid Olimjon nashri orqali ham xalqimiz orasiga keng tarqalganligiga, maktablar va oliy o‘quv yurtlari o‘quv dasturlari hamda darsliklaridan munosib o‘rin olganligiga, uning motivlari asosida dramalar va teatr spektakllari yaratilganligiga qaramay, A. Abdunabiyev va A.

<sup>13</sup> Юнусов. Ф. Билим ўчоғи, 1923-йил, 2-3-сон. 39-59-бетлар; А.Алавий. 1926; Абдурауф Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. - Тошкент, 1928-йил, 33-40-бетлар; Миёнбузрук Солиҳов, Октабргача бўлган ўзбек оғзаки адабиёти(фолклор). 1935-йил, 86-145-бетлар.(1969-1999-йилларда икки марта қайта нашр этилди); А.К.Боровков, Ўзбекистон Фанлар академияси ахборотлари. 1956-йил, 13-сон, 77-88-бетлар.

<sup>14</sup> Ҳоди Зариф, Ўзбек фолклори (хрестоматия). 1939-йил, 80-128-бетлар.

<sup>15</sup> Ҳамид Олимжон, Алпомиш. - Тошкент, 1938-йил, 1-нашр., 1957-1958-йиллар, 2-3-нашрлари.

Stepanov kabi “tanqidchilar” ham topildiki, ular 1952- yilda “Права востока” gazetasi va “Звезда востока” jurnalida e’lon qilgan maqolalarida dostonni xalqqa qarshi, reaksiyon asar sifatida baholadilar. Shu yilning mart oyi oxirida O’zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti hamda Yozuvchilar uyushmasining birgalikda o’tkazgan kengashi ham dostonning g‘oyaviy mazmunini buzib, uni “Qonli urushlarni ko‘klarga ko‘tarib maqtovchi, xon va beklarning talonchiligi va ularning kambag‘al xalqqa o’tkazgan zulmini dabdaba bilan kuylovchi, millatchilikni targ‘ib qiluvchi, xalqqa qarshi asar”, — deb baholadi. Shu tariqa xalqimizning bu sevimli dostoni qatlam qilindi, uni o‘qish, o‘qitish man etildi.

Ammo sofdil, haqiqiy folklorshunoslar bunday g‘ayri ilmiy baho bilan erisha olmadilar. Hodi Zarif, Mansur Afzalovlar 1954-yoldayoq epos masalalariga bag‘ishlab Moskvada o’tkazilgan kengashda so‘zlagan nutqlarida “Alpomish” dostoni badiiy yuksak xalqchil asar ekanligini asoslab, uni o‘rganish uchun maxsus ilmiy konferensiya o’tkazish zarurligini ta’kidladilar. Shunday konferensiya 1956-yilning sentabrida Toshkentda o’tkazildi. Konferensiyada va 1959-yilda “Об эпосе Алпамыш” nomi bilan e’lon qilingan uning materiallarida dostoniga nisbatan haqiqiy ilmiy baho berildi, uni o‘rganish va nashr etishga yo‘l ochildi. Natijada V. M. Jirmunskiyning “Сказание об Алпамыше и богатырская сказка”, ushbu satrlar muallifining “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari<sup>16</sup> monografiyalari<sup>16</sup> bosilib chiqdi, doston bo‘yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi, yangi variantlarini yozib olishga kirishildi. 1954-yilda Fathulla Abdullayev Yangiyo‘rg‘on tumani G‘ovozen qishlog‘ida yashovchi Haydar Boycha o‘g‘lidan, 1955-yilda Zubayda Husainova Kitob tumani Qaynarbuloq qishlog‘ida yashovchi Abdulla shoirdan, Zubayda Husainova bilan Muzayyana Alaviya shu tumanning Shotiri qishlog‘ida yashovchi Hamro Ergash o‘g‘lidan, Mansur Afzalov Shahrisabzda turuvchi Zohir Qo‘chqor o‘g‘lidan, 1956-yilda Oxunjon Sobirov Dehqonobod tumani Qorashina qishlog‘ida turuvchi Umir shoirdan, 1958-yilda A. Mirzayev Guliston tumani Qo‘ybotgan qishlog‘ida turuvchi Murod Otaboy o‘g‘lidan, Mansur Afzalov Jarqo‘rg‘on tumani Jaloyir qishlog‘ida yashovchi Mamadrayim baxshidan, 1960-

<sup>16</sup> Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари. - Т.: Фан, 1968-йил.

yilda Malik Murodov G‘ijduvon tumani Zahkash qishlog‘ida yashovchi Amin Malik o‘g‘lidan, 1962-yilda To‘ra Mirzayev Malik Murodov bilan bir- galikda Xatirchi tumani Yonbosh qishlog‘ida yashovchi Egamberdi Ollomurod o‘g‘lidan, shu yili To‘ra Mirzayev Tojikistonning Dang‘ara tumani Qo‘shtiqa qishlog‘ida yashovchi Ahmadjon Soibnazar o‘g‘lidan, M.Afzalov T. Ashurov bilan birgalikda Hazorasp tumani Kurra qishlog‘ida yashovchi Matnazar Jabbor o‘g‘lidan, 1963-yilda To‘ra Mirzayev Tojikistonning Kolxozobod tumani Paxtaorol qishlog‘ida turuvchi Bo‘riboy Ahmedovdan, 1964-yilda Malik Murodov Yangiqo‘rg‘on tumani Oraariq qishlog‘ida yashovchi Razzoq Qozoq o‘g‘lidan doston variantlarini yozib oldilar. 1968-yilda atoqli shoir-qissaxon Rahmatulla Yusuf o‘g‘li o‘z variantini yozib topshirdi. Shuningdek, talantli dostonchi dehqonobodlik Qodir Rahimovdan folklorshunoslar Abdumo‘min Qahhorov va Abduolim Ergashev dostonning ikkinchi qismini ”Beva Barchin” nomi bilan yozib oldilar. To‘ra Mirzayev 1962-yilda Yangiyer tumani Qo‘shqand qishloqlik Iso Yangiboy o‘g‘lidan va 1963-yilda Tojikistonning Dang‘ara tumani Jorubqo‘l qishlog‘ida yashovchi To‘la Haybat o‘g‘lidan dostonning mazmunini yozib oldi. 1959-yilda Temur Ochilov Zomin tumani Qarapchi qishloqlik Yorlaqab Beknazар o‘g‘lidan dostonning bosh qismini yozib olgan edi. Ushbu parchani mazkur satrlar muallifi ”O‘zbekiston ovozi” gazetasining 1995-yil 30- sentabr sonida e’lon qildi. 1999-2000-yillarda Malik Murodov va Abduolim Ergashevlarining ”Alpomishnama” kitoblarida Qodir Rahim o‘g‘li, Qora Umir o‘g‘li, Xushvaqt Mardonaqul o‘g‘li, Chorshanbi Rahmatulla o‘g‘li, Qahhor Qodir o‘g‘li, Abdumurod Qodir o‘g‘li kabi keyingi avlod baxshilari variantlaridan parchalar nashr etildi. Shu tariqa keyingi 90 yil davomida doston variantlari mamlakatimizning barcha viloyatlari hamda undan tashqaridagi o‘zbeklar yashaydigan hududlardan yozib olingan. Bu variantlar sujet voqealari jihatidan bir-biriga o‘xshasa-da, ularning badiiy ifodasi turli-tumandir. Shuning uchun ham olimlar ularning har birini mustaqil badiiy asar sifatida o‘rganib kelmoqdalar. Shu kunlarda dostonni keyingi avlod baxshilari ham kuylab kelmoqdalarki, bu narsa uning jonli og‘zaki ijro sharoitlarida izchil yashab kelayotganligidan dalolat beradi. Ushbu nashrga, shuningdek, dostonning 1998-yilda chop etilgan ommaviy hamda 1999-

yilda amalga oshirilgan akademik nashrlariga atoqli xalq shoiri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan “Alpomish” dostoni qo‘lyozmasi asos bo‘ldi.<sup>17</sup>

“Alpomish” dostonining variantlari bilan o‘quvchilarni yanada chuqurroq tanishtirish maqsadida slayd orqali yaratilgan giperssilka o‘quvchilar e’tiboriga taqdim etiladi. Shu orqali dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalilanligi o‘quvchilarga mavzuning murakkablik jihatlarini oson o‘zlashtirishga yordam beradi.

“Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li og‘zidan yozib olingan varianti eng mukammali, o‘zbek va boshqa xalqlar kitoblari orasida mashhuri hisoblanadi.

“Alpomish” xalqimiz og‘zaki ijodidagi eng qadimi, badiiy jihatdan mukammal, olimlar tomonidan ko‘p o‘rganilgan dostondir. Unda o‘zbekning uzoq o‘tmishi, rasm-rusumlari, hayot tajribasidan o‘tgan an’analari, kurashlari, tashvishlari, quvonchlari o‘zining badiiy ifodasini topgan.

Muhimi shundaki, o‘zbek millatining hayoti bir tekis ravnaq topgan paytda “Alpomish” dostonini kuylashga e’tibor katta bo‘lgan. Xalqimiz hayotidagi og‘ir zamonlar hukm surgan paytda bu dostonning ham boshida qora bulutlar quyuqlashgan. Hatto mustabid sovet tuzumidagi qatag‘on yillarida “Alpomish”ni kuylash ham taqiqlangan, “xalqqa zarar keltiruvchi asar” -deb qoralangan (1952). Ma’lum bo‘ladiki, “Alpomish” taqdiri asrlar davomida o‘zbek xalqi tarixi bilan chambarchas bog‘liq. XX asrning 70-yillarigacha “Alpomish” dostoni haqida bildirilgan mulohazalarning ko‘pchiligi Mahmud Zarifov buyuk san’atkor Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan 1928-yilda yozib olgan nusxa asosida Hamid Olimjon qisqartirib nashrga tayyorlagan kitobga tegishli edi. Faqat 1969-yilda Berdi baxshidan Abdulla Alaviy va 1972-yilda Saidmurod Panoh o‘g‘lidan Shamsi Murodov yozib olgan nusxalar nashr etilgandi. O‘zbekiston mustaqil bo‘lganidan so‘ng “Alpomish”ga bo‘lgan munosabat ham o‘zgardi. Avvalo, Berdi baxshi aytgan doston qayta nashr etildi. 1998-yilda Xushboq Mardonaqul o‘g‘li (yozib oluvchi Toshtemir Turdiyev), 1999-yilda Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li (yozib oluvchi Mansur Afzalov) nusxalari alohida nashr etildi. Shuning uchun ham dostonning ming yillik to‘yida Prezidentimiz

---

<sup>17</sup> [www.ziyonet.uz-Alpomish](http://www.ziyonet.uz-Alpomish) dostoni haqida.

I. A. Karimov: “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi”<sup>18</sup>, — degan edi. Bu fikrda dostonning mohiyati, g‘oyasi, badiiyati, millatimiz tarixida tutgan o‘rni mujassam etilgan. O‘zbekiston mustaqil bo‘lganidan so‘ng “Alpomish”ga bo‘lgan munosabat ham o‘zgardi. Avvalo, Berdi baxshi aytgan doston qayta nashr etildi. 1998-yilda Xushboq Mardonaqul o‘g‘li (yozib oluvchi Toshtemir Turdiyev), 1999-yilda Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li (yozib oluvchi Mansur Afzalov) nusxalari alohida nashr etildi. 1998-yilda esa Fozil Yo‘ldosh varianti 70 yildan keyin to‘liq holda bosmadan chiqdi. 1999-yilda esa dostonning ming yillik to‘yi katta tantanalar bilan nishonlandiki, bu tadbir o‘zbek xalqining ajdodlar yodini ham asta-sekin o‘rniga qo‘yib esga ola boshlaganidan nishona bo‘ldi. Tantanalar arafasida “Alpomish” - o‘zbek xalq eposi” nomli maqolalar to‘plami va boshqa ilmiy kitoblar, o‘nlab gazeta, jurnal maqolalari e’lon qilindi, ko‘rsatuvlar tayyorlandi.

---

<sup>18</sup> Каримов И.А. “Алпомиш” дostonининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзланган нутқ. // Халқ сўзи, 1999-йил, 9-ноябр.

## **1.2. Qahramonlik dostonlarining o‘ziga xosligi: milliy ruh va an'analar**

Millatni anglash uchun uning ruhiyatini bilish lozim. “Alpomish” dostoni o‘zbekning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadir. Chunki, asarda o‘zbekka xos o‘ylash tarzi, ta’sirlanish yo‘sini, qarorga kelish tutumi g‘oyat nozik ilg‘ab olingan. Juda ko‘pchilik folklorshunoslar, odatda, markazlashgan davlat tuzish, bo‘lingan yurtni birlashtirish, sevgi-muhabbat mavzulari “Alpomish” dostonining sujet rivojini ta’minlaydi deb tushuntirishadi. Bizning nazarimizda esa doston markazida ma’rifatsizlik, johillik va uning inson taqdiriga ta’siri turadi. Asar qissadan hissa chiqarish uchun emas, balki “qissa”ning o‘zi ko‘lamli, miqyosli, yirik, ta’sirli bo‘lgani uchun aytilgan. Chindan-da, “Alpomish” yaratilmagan, balki aytilgan yoki kuylangan. Chunki, doston qahramonlariga xos tuyg‘ular, sezimlar, kechinmalar buyuk turkiylarning tomirida, qonida azaldan mavjud edi<sup>19</sup>. Turkiy xalqlar tomonidan kechirilgan, tuyulgan, hozirda ham qonda kezib yurgan ma’naviy amallar, hodisalar uning ko‘nglida, “tili uchida” turgandi. O‘sha kuylab yuborildi. Alpomish taqdirini kuylash zarur edi. Kuylamaslik ilojsiz edi.

“Alpomish” dostonida xalqimizga xos xislatlar yoritilgan bo‘lib, uni o‘quvchilarga boshqa xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan solishtirib tushuntiriladi. “Rustam” dostonini olaylik, unda doston sujeti ham ayni tug‘mas kundoshlar uyushtirgan tuhmatlar sabab ro‘y bergan voqealar asosida rivojlanadi. Dostonda ochiqdan-ochiq: “Sultonxon Huroyim yoriga aytdi: “Dunyoda bir qo‘rqan yomon, bir quvongan yomon” degan gap bor, Mening qariganda ko‘rgan farzandim; Men shu yerda yursam, sen bir kun tug‘ib qo‘yarsan. Men quvonganimdan yuragim yorilib o‘lib qolarman. Qurudum mamlakatiga safar qilayin. Oldimga suyunchi deb chiqqan kishiga ayamasdan tanga–tilla berarman, qulog‘idan dunyoga ko‘marman, balyu qo‘rg‘onbegi qilarman”, –deb qo‘yilgan. “Alpomish” dostonida ayni shu holat quyidagicha asoslanadi: “...biylar ikkovi aytdi: “Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi, deb bir nechalar oldimizga yo‘lga chiqib, bizlardan tilla-tanga in’om olsa”, –deb o‘ylarni o‘ylab, biylar

---

<sup>19</sup> Ўйлдошев Қ. “Алпомиши” талқинлари ёки достон бадиияти ҳамда миллат маънавияти ҳақида айрим фикрлар.- Тошкент: Маънавият, 2002-йил, 28-бет.

ovga jo‘nab ketdi”. Demak, xalqimizga xos xislatlar biri – bu o‘z quvonchiga atrofdagilarni ham sherik qilish ekan.

“Alpomish” dostoniga o‘quvchilarda yanada qiziqishni orttirish maqsadida o‘qituvchi dostonning xalqimiz tarixida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini aytib o‘tishi lozim.

Dunyodagi qabila, urug‘, elat tarixda alohida xalq sifatida shakllanar ekan, bu jarayon, avvalo, qahramonlik eposi hisoblangan maxsus yirik, epik asarda badiiy ifodasini topadi. Professor Bahodir Sarimsoqov dostonimiz o‘zbekning birlashuvi, mustaqil xalq sifatida paydo bo‘lishida qanday o‘ringa ega ekanini ta’riflab, shunday deydi: “Dastlab qabila, so‘ngra elat eposi sifatida vujudga kelgan “Alpomish” dostoni keyinchalik o‘zbek xalqining qahramonlik eposi sifatida tan olindi”<sup>20</sup>. Haqiqatan ham, doston matnidan juda ko‘p o‘tmish hayot belgilari o‘rin olgan bo‘lib, ularni izohlash natijasida asarning xalq qahramonlik eposi ekaniga to‘la ishonch hosil qilamiz.

Gap shundaki, uzoq o‘tmish zamonlarda biron yurtning mustaqilligi va daxlsizligi u yurtga qaram bo‘lgan qaysidir mamlakatning boyligi bilan ham o‘lchanardi. Xalq ertaklari va dostonlarida asar qahramonining biror yurtga qilgan safari o‘sha yurtni o‘ziga qarashli bo‘lishini xohlashi bilan bog‘liq ekan, bu masalaga alohida bosqinchilik siyosatini aralashtirish to‘g‘ri emas. Bu o‘rinda ko‘proq o‘z yurtining mustaqilligini ta’minalash istagi kuchli ekanini ta’kidlash ma’qulroq bo‘ladi. Shuning uchun “Alpomish” ijodkorlari atayin Boysaridagi o‘jarlik xususiyatini bo‘rttirib ko‘rsatadilar va shu bilan uning Qalmoq yurtida qolishini asoslaydi. Aslida esa Boysarining o‘zga elda qolishi Alpomishning ikkinchi safarini asoslaydi. Qizig‘i shundaki, Alpomish qalmoq eli podshosi Toychixonning mamlakatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bosib olmaydi. U Boysariga o‘tkazilgan zulm, o‘ziga nisbatan amalga oshirilgan xiyonat uchun Toychixonni jazolaydi. Alpomishning bu tutgan yo‘li o‘zbek yigitiningadolat yo‘lida hech ikkilanmay, har qanday xavf-xatarga tayyor ekanligini ifodalaydi. Ayni paytda, Alpomish qalmoqlar (Kashal) yurtiga o‘zining odamini podshoh qiladi. Shu asnoda, u go‘yo o‘z yurtining mustaqilligi uchun

<sup>20</sup> Саримсоқов Б. “Алпомиш” эпоси ҳақида уч этюд. - Тошкент: Фан, 1999-йил, 115-бет.

kurashgan bo‘lib chiqadi. Dono xalqimizning har bir tadbiriga ana shunday, bir qarashda ko‘zga ko‘rinmaydigan yechimlar vositasini topish mahoratiga ham qoyil qolsa bo‘ladi. Alpomishning o‘z yurtiga qaytishi va Qo‘ng‘irot -Boysundagiadolatsizlikka chek qo‘yishi tabiiy bir xulosa sifatida baholanishi mumkin.

O‘qituvchi “Alpomish” dostonida juda ko‘p lavhalar bir qarashda ahamiyatsizdek bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida xalq ular vositasida o‘zining turmush tajribalarini ifodalaganligini ta’kidlab o‘tmog‘i hamda misollar bilan tushuntirib ketmog‘i lozim.

**Masalan**, Barchinoydan Alpomishga kelgan xatni Boybo‘ri berkitib qo‘yadi. Bu bilan Boybo‘rining o‘zi boshlagan yo‘ldan, ya’ni Barchinga o‘g‘lining uylanishi va Boysunning o‘z vataniga qaytishidan voz kechgani ko‘rsatiladi. Voqeа rivojida Qaldирг‘och hal qiluvchi vazifani bajara boshlaydi. U Barchinning xatini tasodifan sandiqdan topib oladi va akasini o‘z qaylig‘ini olib kelish safariga otlanadiradi. Bunday safar xalq qahramonlik eposining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida baholanadi. Alpomish qalmoqlar yurtiga borganida, Barchinning to‘qson alp oldiga qo‘yan shartini bajaruvchilardan biriga aylanadi. **Masalan**, uning Boychibor oti poygadagi to‘rt yuz to‘qson to‘qqizta otga qo‘shilib, besh yuzinchi tulpor bo‘lib Barchin uchun boshlangan musobaqada qatnashadi. Bu bilan xalq Alpomishning hammadan baquvvat, hammadan mergan, hammadan afzal ekanligini amalda ko‘rsatadi. Shuning uchun oti poygada g‘olib kelganidan so‘ng u yoy tortish, tanga pulni ming qadamdan urish va to‘qson alp bilan kurash tushish sinovlarida qatnashib o‘zini ko‘rsatadi. Bu sinov ham qahramonlik eposi xususiyatlariga mos keladi.

Dostondagi Barchinoy bilan bog‘liq voqealar baxshilar tomonidan alohida mehr bilan tasvirlangan. U zukkoligi, tadbirkorligi jihatidan Alpomishdan qolishmaydi. Surxayl kampirning o‘g‘illari Barchinoyni zo‘rlik bilan xotinlikka olmoqchi bo‘lganlarida, qiz alplardan birini ko‘tarib yerga shunday uradiki, polvonning og‘zidan ko‘pik sachrab ketadi. Shundan so‘nggina alplar Barchinoya Alpomishni kutish uchun olti oy muhlat berishga majbur bo‘ladilar.

Dostonda yana shunday bir lavha borki, unda Qaldирг‘ochning bir so‘zligi oqibatida keyingi voqealar davom etadi. Qaldирг‘och sandiqdagи maktubni topib, Alpomishni Barchinni olib kelishga undaydi. Ammo Alpomish yoshligi tufayli

Qultoydan ot ololmaydi. Chorasiz qolgan Alpomish Qalmoq yurtiga borishdan voz kechadi. Ana shu paytda Qaldirg‘och akasining oriyatiga tegadigan gaplar aytadi va unga dalda beradi. Shundan so‘nggina Alpomish Boychiborga ega bo‘lib, safarga otlanadi. Ma’lum bo‘ladiki, dostondagi voqealar rivojining eng nozik nuqtasida Qaldirg‘ochning aralashuvi Alpomishga kuch bag‘ishlaydi.

O‘qituvchi ayni shu o‘rinda o‘quvchilarga Barchinoy va Qaldirg‘och obrazlari orqali tasvirlangan o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan mardlik, jasorat kabi fazilatlar, ornomus va vijdon masalasi xalqimizda azaldan qadrlanganligini hamda hozir ham qadrlanishini, o‘zbek ayollari ana shunday xislatlari bilan hurmatga loyiq ekanliklarini tushuntirishi lozim.

Dostonni to‘liq o‘qib chiqsangiz, o‘zbek xalqining qadim zamonlardan buyon o‘ziga xos fazilatlarga ega ekaniga guvoh bo‘lasiz. Jumladan, dostonda har qanday mushkul vaziyatda ham inson o‘z aql-idrokini yo‘qotmasligi, biror qarorga atroficha mulohaza yuritgan holda kelishi lozimligi uqtiriladi. Insondagi mardlik va jasorat alohida qadrlanadi, aytilgan so‘zning qimmati yuqori baholanadi. Zero, o‘z so‘zining ustidan chiqadigan mard insongina bunday fazilatlarning qadriga yetishi mumkin.

Dostonning tasvir yo‘sini rangin. Undagi biron ta obraz ham jo‘n, oddiy tasvirlanmagan. Jumladan, hatto Boysari obrazi ham tasvir vaziyatiga qarab turli ko‘rinishlar kasb etadi. U hamisha faqat mantiqqa zid o‘jarlik bilangina band emas. Boysari tadqiqotchilar shu vaqtga qadar da’vo qilganlari kabi faqat o‘zini o‘ylaydigan, o‘jar odamgina emas, nomus tuyg‘usi o‘tkir, otalik mas’uliyatini chuqr his qila biladigan shaxs ham. Bu jihat obrazning quyidagi so‘zlarida to‘liq namoyon bo‘ladi:

Tong otgancha muhlat olib turaman,  
Qalmoqlarga qizim qanday beraman?!  
Yuragim to‘lgandir diydai g‘amda,  
Barchinoydi o‘z tengiga qo‘shmasam,  
Mashhar kuni Barchin qo‘li yoqamda...<sup>21</sup>

---

<sup>21</sup> Alpomish (O‘zbek xalq qahramonlik dostoni).- Toshkent: Sharq, 2010, 25-bet

Uning Yortiboy maslahatidan so‘nggi dardchil holati asarda juda ta’sirli berilgan bo‘lib, o‘qituvchi Boysarining ko‘ngli yuz pora bo‘lganligi lavhasini darslikdan ajratib, o‘quvchilarga o‘qib bermog‘i lozim. Ishongan kishilaridan ko‘ngli qolgan, ruhan yolg‘iz ekanligini endi anglab yetgan chorasiz boy tushgan holatning izhori quyidagi so‘zlarda ifodalangan deyish mumkin:

Yuragimda ko‘pdir alamli dardlar,  
Mening qizim—sening singling, nomardlar.  
Qizing ber deb mening ko‘nglim bo‘lasan,  
Suyagimni yongan o‘tga solasan,  
Qalmoqlardan battar izza qilasan.<sup>22</sup>

Keltirilgan she’riy parchada nomusli ota iztiroblari nozik berilgan. Shu o‘rinda o‘qituvchi o‘quvchilarga farzandining taqdiri haqida qayg‘urayotgan ota timsoli vositasida o‘zbek xalqida otaning oila va jamiyatda tutgan o‘rnini izohlab, qiyosiy tahlil asosida xalqimiz ruhiyatida otaning qay darajada yuksak mavqega ega ekanligini ta’kidlab o‘tmog‘i lozim.

Dostonning ayni o‘rnida qorin g‘amidagi yaloqxo‘rlarning holati ham e’tiborga loyiq tasvirlangan. Olijanob tuyg‘ular, yuksak sezimlar tanti va mard odamlargagina tegishli. Bu sifatlar yuksak insoniy fazilatli kishilar qismati, nasibasi. Ular shu qismat dardida yashaydilar:

Tong otgan so‘ng bitar alplar muhlati,  
Ziyodadir Boysarining kulfati,  
Maslahat bermadi turgan ulfati,  
Qolmadi Boysaribiying toqati.<sup>23</sup>

Dostonda Barchin ruhiyati g‘oyat teran aks ettirilgan. Uning baland martaba, baland ruh, baland qadr egasi ekanligi, shu bois o‘ziga ham, o‘zgaga ham yuksak talablar bilan yondashishi juda ta’sirli ifodalangan. Ayni vaqtida odamni anglash, uning ruhiy holatini o‘z vaqtida nozik hisobga ola bilishi asarda ortiqcha izoh-u tushuntirishlarsiz asosli tasvir etiladi. Barchin — barcha aqlli odamlar singari

---

<sup>22</sup> O’sha asar, 26-bet

<sup>23</sup> O’sha asar, 27-bet.

murakkab tabiatli. U — turlicha vaziyatlarda o‘z tabiatining anvoyi jihatlarini namoyish eta oladigan favqulodda timsol. Bir vaziyatda u — mushtipar, chorasziz odam. Otasi Qalmoqqa ko‘chmoqchi bo‘lib, ularni og‘ir ahvolga solganda, yoshgina Barchin onasidan yozg‘irib deydi:

Bul ko‘chishing, ena, mening sho‘rimdir,  
Boy otamman biy boboma ne bo‘ldi?  
...Xo‘ja kelsa, chiqar murid naziri,  
Xotin bo‘lmasmikin arning vaziri?!  
Er deganning aqlin olmas bo‘lurmi?  
Aldab-suldab yo‘lga solmas bo‘lurmi?!<sup>24</sup>  
Yoki yana bir o‘rindagi holatga e’tibor qaratamiz:  
...Ot abzallab olib keling enajon,  
Yana qaytib elni ko‘rmagim gumon.  
Yig‘latding, enajon, menday sanamni,  
Kelib ko‘rolmayman maktab jo‘ramni,  
Bunda turmay Qalmoq elga borarsan,  
Qalmoqlardan ko‘p zulmni ko‘rarsan,  
Borib so‘ngra ko‘p pushaymon qilarsan.<sup>25</sup>

Erka, hali turmush sinovlariga duch kelmagan, lekin tabiatan tiniq fikrli qiz kattalarning adashayotganliklarini, ularni bu yo‘ldan ayol kishigina qaytarishi mumkinligini tuyadi. Shu bois botinib: “Xotin bo‘lmasmikin arning vaziri”, — deya onasiga iddao qiladi. Lekin o‘zbekning qizi bo‘lgani bois yurak yutib noroziligini otasiga bildirolmaydi. Chunki, u ota hamisha ulug‘ ko‘riladigan, padardan kamchilik axtarilmaydigan o‘zbek oilasida o‘sgan. Shu bois otasining og‘ir holatini hazm etolmaydi. Hech qachon shashti qaytmagan Boysarining qalmoqlarga javob berolmay og‘ir ahvolda qolganini ko‘rib, mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi va hech narsadan tap tortmaydigan jasur qiz ekanini ko‘rsatadi. Faqat otasiga og‘angizdan ortiq ko‘rib ergashtirib kelgan qarindoshlaringiz zap maslahat berdi-ku deganday, gina qiladi:

<sup>24</sup> Alpomish (O‘zbek xalq qahramonlik dostoni). – Toshkent: Sharq, 2010, 28-bet

<sup>25</sup> O’sha asar, 2010, 30-bet

Juda ham gangidi, boy ota, boshing,  
Maslahat berdi-ku qavmi-qardoshing,  
Ko‘p yig‘lama, jonim otam, darvishim,  
Eshitmagin qarindoshlar so‘zini,  
Qarindoshlar bera qolsin qizini!  
...Xafa qilma, ota, menday qizingdi,  
Qo‘ya ber alplarga mening o‘zimdi...<sup>26</sup>

Bu o‘rinda Oybarchin otasini hammadan aziz ko‘rvuchi, uning qiynalishiga toqat qilolmaydigan mehribon va oqila farzand sifatida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda, o‘qituvchi o‘zbek xalqida farzandning ota yuziga tik boqib gapirmasligini, andishani yuqori o‘ringa qo‘yishini, lekin mana shunday qiyin va murakkab vaziyatlarda uni jim kuzatib tura olmaydigan jasoratga ega ekanligini izohlab, ularning o‘z shaxsiy fikrlarini so‘raydi. Ota va qiz o‘rtasidagi munosabatlarni alohida ta’kidlab tushuntiradi.

Oybarchin o‘rni kelganda po‘pisani ham joyiga keltiradi. Uni olmoq payida to‘dalashib turgan qalmoqlardan tap tortmay balanddan keladi:

... Meni olarman deb xayol qilmagin,  
Ketgin qalmoq, kelgan yo‘ldan qolmagin.  
Mening to‘ram, bilsang, Boysun sultonni,  
Unga qurbon menday oyimning joni.

Mazkur so‘zlar o‘z qadrini biladigan, birovning zug‘umiga osonlikcha bo‘y bermaydigan, erkini, ko‘ngil istaklarini, sha’nini baland tuta biladigan qiz tabiatini namoyon etadi. U— chinakam o‘zbek qizi, olti oylik yo‘ldagi qallig‘ini “to‘ram” ming urinib qilolmaganini bir zarb bilan hal etishiga ishonadi. O‘ziga ishonch bunday kishida og‘irlik, qanoat tuyg‘ularini shakllantirgan. Dostonda shu jihatlar g‘oyat nozik hisobga olingan. Dostonda Boybo‘ri bilan Boysarilarning o‘zaro munosabatlari, kelishmasliklari, johilliliklari, bemehrliklari va bu holatning sabablari haqida alohida to‘xtalinmagan. Ammo, asardagi yondosh tasvirlar bilvosita shu

---

<sup>26</sup> Alpomish (O‘zbek xalq qahramonlik dostoni). - Toshkent Sharq, 2010, 38-bet

xulosani chiqarishga xizmat qiladi. Chunonchi, Boybo‘rining Barchin choparlariga po‘pisasida eldoshlar, ini, bo‘lg‘usi kelin taqdiriga hukmdor og‘aning mutlaqo beparvoligi ko‘zga tashlanadi: “Bundan ketgancha, Qo‘ng‘irot muzofotidan o‘tgancha, Qalmoq viloyatiga yetgancha, yo bir o‘tinchiga, yo bir podachiga, yo cho‘lda yurgan cho‘ponga “Biz Barchinning chopari bo‘lar edik” deb og‘zingdan chiqarsang, odam buyuraman, keyiningdan quvib yetadi, boshingga qamchi soladi, badaningni bo‘zday qilib yirtadi, opkelib dorga tortadi...” Agar taqiq buzilsa, choparlar boshiga tushishi mumkin bo‘lgan og‘ir kunni imkon qadar ta’sirli, ravshan gavdalantirmoq uchun dostonda badiiy so‘z qudratidan oqilona foydalanilgan. Dostonda chopalarning Boybo‘ri taqiqiga munosabati ham chin, tabiiy tasvirlangan: “Xo‘p gapni gapirdi, xohi bor, xohi borma, bizdan bir xizmatda, bizning borgan-bormaganing bilan nima ishimiz bor, ketsa, sening kelining ketadi, qalmoq olsa, sening iningning qizini oladi, bizdan ketadigani bir yo‘l xizmatimizda...” Bu so‘zлarni chin o‘zbekona munosabat tarzining samimiyl ifodasi deyish mumkin. Chopalnar o‘zlarining bor-yo‘g‘i xabarchi ekanliklarini, Boybo‘riga maslahat berib, uni insofga chaqirishga haqlari yo‘qligini yaxshi bilishi asarda go‘zal aks ettirilgan.

Dostonda haqiqiy o‘zbek yigitining timsoli bo‘lgan Alpomish - ulkan vujud, beedad kuch, shunga yarasha, chegarasiz sabr egasi. O‘zbekning pahlavoni ilmoqli gapni ko‘p ham elamaydi. Unga kinoya qilish emas, balki to‘qqiz pulday qilib, tugib berganda anglab olsa ham katta gap. Alpomish o‘zini narmoda deyilmish haqoratga daxldor ko‘rmaydi, bu sifatni o‘ziga aslo yaqinlashtirmaydi. Shu bois singlisiga yuqoridagi so‘roqni beradi. Bu so‘roq esa, nomusli kishi uchun avvalgi holatdan-da og‘irroq.

Qaldirg‘ochning akasiga javobida o‘zbek ayoliga xos eng nurli jihatlar yorqin namoyon bo‘ladi:

Har kim o‘z elida bekmi, to‘rami,  
Narmodalar sendan kamroq bo‘lami?!  
Mardning yori toy-talashda qolami?!  
Mard bo‘lib maydonli kunda yurmagan,  
Yilqichidan bedov siylab minmagan,

Olmos po‘lat belgan qayrab cholmagan,  
Ot asbobin shaylab Qalmoq bormagan,  
Qalmoqlarga qattiq kunlar solmagan  
Toy-talashda qolgan yorin olmagan,  
Olmos po‘lat belgan qayrab cholmagan,  
Ot asbobin shaylab Qalmoq bormagan,  
Qalmoqlarga qattiq kunlar solmagan  
Toy-talashda qolgan yorin olmagan,  
...Narmodalar sendan ortiq bo‘lami?

Bu so‘zimni nega og‘ir olasan,  
Yoring ketsa, qanday elda yurasan?  
Tirik yurmay, aka sen ham o‘lasan....<sup>27</sup>

Ayol qalbini o‘rtagan, uning vujudini junbushga keltirgan nomus tuyg‘usi, alangasi uncha-muncha bemalollikni, loqaydlikni, erinchoqlikni olovday kuydirib yuboradi. Ammo, Alpomish oddiy odam emas. Shu sabab u haliyam bu gaplarni unchalar anglamaydi, u qadar xijolat bo‘lmaydi. Singilning shuncha achchiq ta’nalaridan so‘nggina bu yirik odamni Qalmoqqa nimada borish muammosi sal bezovta qilganday bo‘ladi: “Yayov boramizmi esa” Alpomishning bu bo‘lmag‘ur mulohazasi Qaldirg‘ochda qanday munosabat uyg‘otganini tasavvur etish mumkin: “To‘qson to‘qay yilqing bor, yayov borib mingani oyoq-ulov topmay yotibsanmi? Egar-abzalni olsang, yilqiga Qultoyning qoshiga borsang, ko‘nglingga yoqqanini xohlab minib keta bersang”. Qaldirg‘ochning bu qadar bat afsil gapirishiga sabab barcha yirik, qoruvli, pahlavon odamlarda bo‘ladigan temsa-tebranmaslik, kamxafsالالik sifatlari akasida qay darajada mavjudligini bilganidan, ijikilab tushuntirmasa, yana nimanidir qilmay yoki noto‘g‘ri qilib qo‘yishidan xavotirlanganidan. Shu bois “egar-abzalni olsang”, deb ham ta’kidlaydi.

Alpomish — og‘ir tosh. Xalqda “og‘ir tosh ko‘chsa” degan gap bor. Alpomishning siljishi qiyin. Siljib olsa, uni to‘xtatib bo‘lmaydi. U Qultoydan ot olishga

---

<sup>27</sup> Alpomish (O‘zbek xalq qahramonlik dostoni) . – Toshkent: Sharq, 2010, 125-bet

ketayotganda otasiga duch kelishi, Boybo'rining "Ko'rar ko'zim, bolam, qayda borasan?" degan so'roviga o'g'ilning: "Ey, zakot olmay o'ling siz bir", — degani Alpomishda sal siljish boshlanganidan dalolat. Bu toifa odamlarga jikillab borib-kelaverish, qiziqqonlik, bo'lar-bo'lmasga ta'sirlanaverish, o'rgangan sharoitni o'zgartirish — og'ir. Shu sabab, uzoq yurtga borish uchun yo'lga chiqayotgani haliyam malol kelib turibdi. Haliyam badani tamomila qizigani yo'q. O'ta polvon, o'ta kuchli odamlar bir oz qo'rroq kelishi ham bor gap. Buni Boybo'ri juda yaxshi biladi va shu bois Qultoya: "Alpomish ketyapti, Kashaldan kelgan xabarni birov bildiribdi, bul ish yomon bo'pti, o'zi zo'r-ku, zo'r bo'lsa ham juda qo'rroq, sal do'qdan ham qo'rjadi o'zi, urib-so'kib, yilqi bermay, do'qlab qaytarib yuborgin". — deya tayinlaydi.

"Alpomish" dostoniga o'quvchilarda mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish uchun dostonning badiiy-estetik xususiyati haqida ham alohida to'xtalmog'i lozim. O'zbekning odobi dostonda yuksak maqomda namoyon bo'ladi. Quliga qarata: "O'zimga yor, bobo, senga xizmatkor" keltiraman deyish faqat o'zbekning o'yiga kelishi mumkin. Chunki, bizda katta, ulug' yoshli odam — har narsadan-da katta va ulug'. Uni e'zozlash, hurmatlash lozimligi kunning yorug'ligi singari tabiiy hol. Qultoyning Alpomishga mehribon va ularning oilasiga sadoqatli, lekin darvesh tabiat, quvnoq, dali-g'uli va biroz hovliqmaroq kishi ekanligi asarda chuqur tasvirlangan. Boybo'rining gapi bilan yosh Alpomishga ot bermay, uni kaltaklab, kerilganda qanchalar samimi bo'lsa, yetti yillik ayriliq vaqtida, Hakimbek yo'qligida azoblar ko'rib, "Armon bilan farzandimdan ayrildim", - deb yig'lab yurganda ham shunchalar astoydil. Alpomish unga o'g'il ekanligiga o'zi ham ishonib qolgan deyish mumkin. Qultoy na ishda va na so'zda me'yor tuyg'usini biladi. Alpomishni dastlabki safardan qaytarib, ayamay kaltaklaganda qanchalar me'yorni bilmagan bo'lsa, uzoq ayriliqdan so'ng tutingan o'g'li bilan yo'liqishganda ham shunchalar me'yorga amal qilmaydi: "Alpomish aytdi:-Men kimga o'xshayman,

-Sen bir go'rga o'xshaysan, sening o'xshaganing bilan qachon ishim bor mening, senday necha odamlar Alpomish kelayotir, suyunchi ber, deb necha sarkalarimni yeb

ketgan. Alpomish deb borsak, Qultoy ahmoq bo‘p bizga bir nima beradi, aldab bir sarkasini olamiz, deb kepsan,-dedi<sup>28</sup> ”.

Uning Alpomish tomonidan berilgan: “Hayr, bobo, meni tanimadingiz. Alpomishning nima belgisi bor edi?”- degan so‘rog‘iga qilgan javobida me’yor avvalgilaridan-da battarraq buziladi:

Qultoy aytdi: - “Alpomishning belgisi shul edi, o‘ng egnida Shohimardon pirning besh panjasining dog‘i bor edi, chap egnida o‘zimning besh panjamning belgisi bor edi<sup>29</sup> ”.

Alpomish bilan Qultoy o‘rtasidagi bu samimiylit sof o‘zbekona turmush tarzining mahsulidir. Chunki, qadimdan o‘zbeklarda eng avvalo, yosh e’tiborga olingan va hamma vaqt keksalarga hurmat va muruvvat yetakchilik qilgan. O‘qituvchi dars davomida o‘quvchilarga bu samimiyl munosabatning ildizi sof o‘zbekona ekanligini tushuntirib, kim va qanday mansab-mavqega egaligidan qat’iy nazar kattalarga hurmatda bo‘lish o‘zbekona odatlardan ekanligini tushuntiradi. Va shu o‘rinda uni boshqa asarlar bilan qiyoslab, bunday munosabat boshqa asarlarda ham ko‘p uchrashini alohida qayd etib, Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida Otabek va Hasanali o‘rtasidagi munosabatga ishora qilmog‘i lozim.

“Otabek mehmonlarni tanchaga o‘tquzib, fotihadan so‘ng Hasanalidan so‘radi:

- Tuzukmisiz, ota?
- Xudoya shukur, - dedi Hasanali, boyag‘idan biroz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan.
- Ba’zi yumushlar buyursam...
- Buyuringiz, o‘g‘lim.
- Rahmat, ota, bo‘lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.
- Xo‘b, begin.

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog‘liq so‘rashgandan keyin so‘radi:

- Bu kishi kimingiz bo‘ladir, bek aka?

<sup>28</sup> Алпомиш; Рустамхон/(Сўзбоши муаллифи М.Муродов).-Т:Адабиёт ва санъат , 1985, 292-бет.

<sup>29</sup> O’sha asar, 1985, 292-bet.

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so‘ngra javob berdi:

- Qulimiz.

Bu so‘zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

- Qulingiz?
- Shundog<sup>30</sup> ”.

Otabekdagi bu istihola ham, o‘z qulini qul emas, ota deb bilishi ham sof o‘zbekona tuyg‘uga yo‘g‘rilgan. Alpomish ham Otabek ham ana shunday yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lganligi bilan qadrlidir.

Dostonda to‘y tasviri va milliy urf-odatlar shunday bayon etiladi:

Haqdan kelgan ishga bo‘yin iydirdi,  
O‘n ming uyli elatni jiydirdi.  
Xabar berdi shunda otlar choptirib,  
Namoyishga oq o‘tovlar yoptirib.  
Barchinoya to‘y qilmoqchi bo‘ladi.  
Chilbir cho‘lda to‘yni boshlab qoladi.  
Qirq kundan kay to‘ylar oxir bo‘ladi,  
Bir nechalar uygaga qarab jo‘nadi.

... Baxmal o‘tovda chimildiq tutib, kuyov navkarlari bilan kuyovni kirgizmoqchi bo‘lib, bir necha xotinlar “kampir o‘ldi” bo‘lib, o‘lganiga bir nima olib, “it irillar”degan rasmini qilib, bunda ham bir nima berib, har zamon salom solib, uydan ichkariga kirib, chimildiqqa o‘tirib, oldiga dasturxon solib, ... kuyov navkarlarga to‘ppi, ro‘mol, sarpoylar berib, kuyov navkarlar chiqib ketdi. Barchinni bekning qoshiga olib kirib, xotinlar rasmini qilib, “chach siypatar”, “qo‘l ushlatar”ini qilib, bir necha yangalar har qaysisi o‘z manziliga ketdi.<sup>31</sup>

Ayniqsa, o‘zbek yigit Alpomish bilan qalmoq Qorajonning do‘stligi, bu do‘stlikning doston davomida mustahkamlanib borishi diqqatga sazovor. Zero, xalqimizda qadim-qadimdan aka-uka, do‘st tutinish odati mavjud bo‘lib,

<sup>30</sup> Qodiriy A. O‘tkan kunlar// Roman.- Toshkent: Yangi asr avlod, 2012, 7-8-betlar.

<sup>31</sup> Alpomish (O‘zbek xalq qahramonlik dostoni). – Toshkent: Sharq , 2010 yil, 136-bet.

“tug‘ishgandan tutingan afzal” degan iboraga aylanib ketgan. Hatto tutinganlarni qarindosh-urug‘lari, ota-onasi ham o‘z farzandiday ko‘rgan. Dostondagi Alpomish bilan Qorajon o‘rtasidagi do‘stlik haqqoniy va hayajonli lavhalarda ifodalangan va katta insoniy do‘stlik elatlar o‘rtasidagi do‘stlik darajasiga ko‘tarilgan. Do‘stga sadoqat, va’daga vafo kabi olivjanob qadriyatlar shakllangan. Xususan, quyidagi parcha orqali Alpomish bilan Qorajon o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik, hurmat-izzat, qadrdonlik uning ota-onasi uchun ham qadrlanganligi ifodalanadi:

Farzandini xon Boybo‘ri ko‘ribdi,  
Bolam deb, ikkovicin birday bilibdi...  
Hakimbekni shunday bag‘riga bosib,  
Qorajonman muhabbat bilan ko‘rishib,  
Sog‘-salomat seni ko‘rdim, Hakimjon,  
Ketdi yuragimdan mening yuz armon.  
Bu o‘g‘limning do‘sti ekan Qorajon.  
Bo‘lakdan quchoqlab endi ko‘rishgan,  
Avval bilmabman, deb qildi pushaymon,  
Ikkovini birday ko‘rib ul zamon.  
Barchinni olib kelgan elning to‘rasi,  
Kelib qoldi oq ot mingan enasi.  
Qorajon ikkovicin birday so‘radi,  
Enasi aylanib duo qiladi.

Ushbu misralarni o‘qib berish bilan o‘qituvchi o‘quvchilarga do‘stlik- o‘zbek uchun juda nozik, ehtiyyotlik hamda e’tibor talab qiladigan tushuncha ekanligi, bu muqaddas rishtani asrash kerak ekanligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, “Alpomish” dostoni yurt sog‘inchini o‘zida mujassamlashtirgan, ona Vatanga muhabbat, do‘stga va yorga sadoqat kabi tuyg‘ularni go‘zal badiiy lavhalarda ifodalay olgan xalqimizning sevimli dostonidir. O‘qituvchi o‘zbek xalq dostonlari orasida “Alpomish” xalqimizning ko‘pgina xislatlarini o‘zida mujassam etganligi bilan alohida ahamiyatga ega ekanligini

ta'kidlab, undagi o'zbek xalqiga xos xususiyatlarni birma-bir sanab bermog'i maqsadga muvofiqdir:

- ona Vatanga bo'lgan muhabbat, el-yurtga cheksiz sadoqat;
- mehmondo'stlik va mehmon kutish odoblari;
- jo'mardlik va halollik;
- yoshi ulug', keksa insonlar(hatto ular qul bo'lsa ham)ga hurmat va ularning doimo qadrlanishi;
- ayollarning e'zozlanishi;
- do'st va yorga vafo-sadoqat tuyg'ulari;
- ishq-muhabbat va do'stlik kabi tuyg'ularning qadrlanishi.

O'qituvchi dostonni o'tish jarayonida asarning mana shu tomonlariga alohida e'tibor qaratishi, asarning tarbiyaviy jihatini ochib berishga ayricha ahamiyat berishi kerak. Zero, shundagina dostonni sinchiklab o'qigan o'quvchi unda ona Vatan, do'stu yorga bo'lgan mehr va sadoqat naqadar chuqur aks etganligini his eta oladi.

## **II bob. “Alpomish” dostonini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.**

Ma’lumki, ta’lim chuqur, har taraflama asosli ta’lim-tarbiya berish, mutaxassis va tayyor kadrlar tayyorlashning turli shakl, usul, vosita, uslub va yo‘nalishlarining mukammal uyg‘unligidan iboratdir.

Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiyligida pedagogik va didaktik talab o‘quvchilarning dasturiy bilim, tasavvur va ko‘nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o‘quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg‘ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborotta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzlusiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidan borayotgan bir paytda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdir. Aynan shu vazifani adabiyot fani bajarishi, shubhasiz.

Davlatimiz istiqboli, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurish sohasidagi ishlarning samaradorligi yuqori malakali, yuksak ma’naviyatlari, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirish muammosi bilan uzviy bog‘liq. Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq IX sessiyasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar ana shu maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan. Kadrlar tayyorlash va ta’lim tizimidagi, o‘quv tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan, bosqichma - bosqich hal etish yo‘llar va vositalari Vazirlar Mahkamasi va Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda belgilab berilgan. Ta’limning samaradorligini oshirishda yuksak imkoniyatlarga ega bo‘lgan vositalardan biri sifatida ta’limning faol usullari qaralayapti. Ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalar

tushunchasining kirib kelishi va o'sha texnologiyalarning keng qo'llanilishi hozirgi zamon talabidir. Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimini, kadrlar tayyorlashni yangilash vazifalarini ta'lim – tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni jadal kiritish, auditoriyada, sinfda, darsdan tashqarida o'quv tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarning faolligini oshirishga erishish orqaligina bajarish mumkin.

## **2.1 Doston kompozitsiyasini o‘rganishda innovatsion yondashuv.**

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri: shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlarini qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlarini keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun umumiyligi o‘rtalama ta’limida adabiyot darslarida zamonaviy o‘qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rnini va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda davlatimiz ta’lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o‘qituvchi faoliyati yangilanadi, o‘quvchilarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

Dastlab “texnologiya“ tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so‘z texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liq holda fanga 1872 -yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan - “texnos“ (techne) - san’at, hunar va “logos“ (logos) - fan so‘zlaridan tashkil topib, “hunar fani“ ma’nosini anglatadi. Biroq, bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko‘zda tutadi. Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarni intensiv shakllantirish jarayonidir. Yuqorida keltirilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, pedagogik texnologiya tushunchasini

izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta’riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko‘pdir. Pedagogik nashrlarda “texnologiya” atamasining xilma-xil ko‘rinishlarini uchratish mumkin: “o‘qitish texnologiyasi”, “o‘quv jarayoni texnologiyasi”, “ma’lumot texnologiyasi” va hokazo<sup>32</sup>.

Pedagogik texnologiya o‘qitish jarayoning o‘zaro bog‘liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarni ko‘rish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta’minlaydi. Yoxud pedagogik texnologiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig‘indisidir. Texnologiya o‘zining egiluvchanligi, natijalarning turg‘unligi, samaradorligi, oldindan loyihalanish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi. Shu bilan birgalikda ma’lum vaqt davomida pedagogik texnologiya o‘quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi T. Sakamoto tomonidan “o‘qitish texnologiyasi - bu o‘qitishning maqbulligini ta’minlovchi yo‘l-yo‘riqlar tizimi bilan bog‘liq bilimlar sohasi“ ekanligi e’tirof etiladi.

Obyektiv borliqni o‘rganishning tizimli yondashish metodi fanda keng ko‘lamda qo‘llanilgach, uning ta’siri ostida asta-sekinlik bilan pedagogik texnologiya mohiyatiga ham aniqlik kiritildi: rus olimasi N.F. Talizina texnologiyani “belgilangan o‘quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat“ deb tushuntiradi. Shuningdek, olima zamonaviy o‘qitish texnologiyasi haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash lozimligini uqtiradi: “O‘qitish texnologiyasi - bu o‘quv jarayonini nima real tavsiflasa o‘sha, o‘qituvchiga o‘rnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayanish zarur bo‘lsa o‘sha.”

Pedagogik texnologiyani fan sifatida e’tirof etish K.K Selevko tomonidan ham ma’qullandi: “Pedagogik texnologiya o‘qitishning birmuncha oqilona yo‘llarini

---

<sup>32</sup> Toipova O’. Q., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T.: Fan, 2006.

tadqiq qiluvchi fan sifatida ham, ta’limda qo’llaniladigan usullar, prinsiplar va regulyativlar sifatida ham, real o‘qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir”.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog‘liq deb hisoblaymiz, ya’ni o‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo’llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o‘quv jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o‘zлari xulosa qila olsalar, o‘zлariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatları uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. O‘qituvchi va o‘quvchining maqsadli natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o‘quvchilarining bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishslash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘lar, bular o‘qituvchi va o‘quvchiga bog‘liq.

Shu bilan bir qatorda o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o‘quvchini ta’limning markaziga olib chiqish kerak. O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o‘qituvchiga u

tomonidan bo‘lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o‘quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo‘lishi, shuningdek, juda ko‘p metodlar, usullarni bilishi kerak bo‘ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo‘lishi avvaldan puxta o‘ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog‘liq.

Adabiyot ta’limida “Alpomish” dostonining o‘qitilishida innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarga mavzuni oson o‘zlashtirilishiga va asar haqida chuqur ma’lumotga ega bo‘lishlariga yordam beradi.

“Alpomish” dostonining sujeti bilan o‘quvchilar uning Y.Burova rejissorligida ishlangan kinofilm orqali yaxshi tanish bo‘lganliklari sababli o‘qituvchi ularga doston kompozitsiyasidagi kinoda qo‘yilmagan o‘rnlarni aytib berishi yoki uning baxshilar tomonidan kuylangan audio yoki videosini kompyuter orqali qo‘yib eshittirishi mumkin. Bu esa doston kompozitsiyasini o‘qitishda o‘qituvchiga yordamchi material sifatida xizmat qiladi va o‘qituvchi shu o‘rinda darsda multimedia vositalaridan unumli foydalanadi.

O‘zbek xalq dostonlari sinkretik (aralash) san’at namunasi hisoblanadi. Shu jumladan, “Alpomish” ham. Unda doston matni, kuyi va birorta cholg‘u asbobi ishtiroy etishi shart. Bularsiz tinglovchi xalq dostonlarini to‘liq qabul qila olmaydi. Lekin, bugungi o‘quvchi uchun doston matni asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Maktab darsligida berilgan dostonidan parcha ham doston haqida to‘liq ma’lumot bermasa-da, uning badiiy go‘zalligini, estetik jozibadorligini o‘quvchi qalbiga singdiruvchi asosiy vositadir. O‘qituvchi maqsadga erishish uchun texnik vositalardan, jumladan, kompyuter yoki boshqa multimedia vositalaridan foydalangan holda dostonning jonli ijrosi bilan o‘quvchini tanishtirish mumkin. Shunga qaramasdan, ikkinchi bir mas’uliyatli vazifa yuklanadiki, doston matnini o‘quvchiga to‘la holda yetkazish uchun dostonning to‘liq nashridan parchalarni o‘qib berish va tahlil etish ham zarur.

O‘qituvchi doston kompozitsiyasi haqida umumiyl tushuncha berar ekan, eng avvalo, sa’j san’ati haqida ma’lumot berishi lozim. Sa’j xalq dostonlarida muhim epik komponent bo‘lib, nasriy bayonni qofiyalangan holda, ma’lum vaznlarga solingan tarzda aytishidir<sup>33</sup>. Bu san’at dostonning nasriy kirish qismida, qahramonlar portreti, tabiat tasviri va xotimada keng qo‘llaniladi. O‘qituvchi nazariy fikrlarni aytgach, sa’j san’ati bilan bog‘liq dostonda qo‘llaniladigan an’anaviy zachinni o‘qib bergani ma’qul: “Biylarning ko‘nglini *xushlamadi*, otini *ushlamadi*, ostiga libos *tashlamadi*”<sup>34</sup> yoki “Xaloyiqlar ham ko‘rdi: tarzi gul *yuzli*, shirin so ‘zli, bir siyosatli kishi qalandar bo‘lib kelayotir”<sup>35</sup>, “Toychi *viloyatinda*, Qalmoq *muzofotinda* bir Surxayl degan Kampir bor edi”<sup>36</sup>.

Dostonda qofiya bilan kelgan so‘zlar ajratib ko‘rsatiladi va o‘quvchilarga nasriy qofiyaning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha beradi.

O‘qituvchi “Alpomish”dostonining kompozitsiyasini o‘quvchilarga o‘qitishda avvalo, ularni doston syujeti bilan qiziqtirishi hamda ularda doston haqida umumiyl tasavvur uyg‘otishi lozim. So‘ngra dostonning baxshilar tomonidan kuylangan variantlarini qo‘yib berish orqali ularning diqqatini yanada ko‘proq darsga jalb qilish imkonini paydo bo‘ladi. Shu orqali o‘qituvchi dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan o‘rinli foydalanishi mumkin.

Dars jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini mavzuga qaratish uchun oldindan tayyorgarlik ko‘rilgan kichik sahna ko‘rinishini bir nechta o‘quvchilar yordamida ko‘rsatib berishi mumkin:

O‘quvchi (baxshi): Alpomishning singlisi Qaldirg‘ochoyim akasiga qarab bir so‘z aytib turgan ekan<sup>37</sup>.

O‘quvchi (Qaldirg‘och):

Aka, senga aytadigan arzim bor,

Talash bo‘pti boyning qizi zulfakdor.

<sup>33</sup> Yusupova Dilnavoz. Adabiyotdan universal qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 23.

<sup>34</sup> Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiyl o‘rtta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik, 1-qism. – Toshkent. 2014-yil, 8-bet.

<sup>35</sup> O’sha kitob. 10-bet.

<sup>36</sup> O’sha kitob. 17-bet.

<sup>37</sup> Мирзаев Т., Зарипов Х. - Алпомиш. Тошкент: Ўзбекистон, 1992-йил, 67-бет

Mard yigitning yori talash bo‘larmi,  
Er yigitning yorin qalmoq olarmi?  
Aka, aytgan so‘zim og‘ir olmagin,  
Narmoda ishini bunda qilmagin<sup>38</sup>.

O‘quvchi (baxshi): Bu so‘zni eshitib, Hakimbek narmoda degan gapni ko‘ngliga og‘ir olib, qizlarga qarab, narmoda degan gapning ma’nosи nima deb so‘rab turgan ekan.

O‘quvchi (Alpomish):

Jafo tig‘i bu kun jondin o‘tadi,  
Ayriliq xanjari bag‘rim yirtadi,  
Narmoda deb qizlar kimni aytadi?  
Narmoda deganga ko‘nglim buzildi,  
Diyda giryon bo‘lib bag‘rim ezildi.

O‘quvchi (baxshi): Bu so‘zni akasidan eshitib, Qaldirg‘ochoyim bir so‘z aytib turgan ekan.

O‘quvchi (Qaldirg‘och):

Har kim o‘z elida bekmi, to‘rami,  
Narmodalar sendan kamroq bo‘lami?  
U sababdan bunda xabar kelibdi,  
Aka, sendan bormoq lozim bo‘libdi.

O‘quvchi (baxshi): Bu so‘zni eshitib, Hakimbek Qaldirg‘ochga qarab dedi:

O‘quvchi (Alpomish): Yayov boramizmi esa?

O‘quvchi (Qaldirg‘och): To‘qson to‘qay yilqing bor, yayov borib, mingani oyoq- ulov topmay yotibsanmi? Egar-abzalni olsang, yilqiga Qultoyning yoniga borsang, ko‘nglingga yoqqanini minib keta bersang.

O‘quvchi (baxshi): Qaldirg‘ochoyim egar-abzalni,sovut-qalqonni, yov-yaroq, asbobni, ayil-pushtanga solib, o‘xshatib bo‘g‘ib, ko‘tartirib yubordi<sup>39</sup>.


---

<sup>38</sup> O’sha kitob, 68-bet.

<sup>39</sup> Mirzayev T., Zaripov H. - Alpomish. Toshkent: O‘zbekiston, 1992-yil, 69-70-betlar.

Dars jarayonida bir nechta o‘quvchilarni oldindan tayyorlab, mana shunday qisqa sahna ko‘rinishni o‘quvchilar e’tiboriga havola etish ularning asarga qiziqishlarini orttirib, ularni o‘yashga, xulosa chiqarishga chaqiradi, mustaqil fikrlashlari va tahlil etishlariga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, Alpomish shajarası haqida ma’lumot berish uchun slayd orqali daraxt ko‘rinishida shajara ko‘rsatilib, Alpomishning ajdodlari va avlodlari bilan tanishtirish mumkin:



“Alpomish” dostonining matni ustida ishlashda o‘qituvchi doston yaratilgan davr tili va bugungi adabiy til o‘rtasida farq borligini o‘quvchilarga tushuntirmog‘i lozim. Shuning uchun, o‘qituvchi maktab darsligida berilgan “Alpomish” dostonining matnini o‘quvchilarga o‘qish uchun vazifa qilib berar ekan, o‘zлari uchun notanish bo‘lgan so‘zlarning ro‘yxatini tuzib kelishni topshiriq qilib beradi. Tabiiy ravishda

o'qituvchining o'zi ham doston matni uchun alohida lug'at tuzib olishi maqsadga muvofiqdir. Bu lug'at "O'zbek tilining izohli lug'ati" yoki "Alpomish" dostonining izohli lug'ati<sup>40</sup> asosida tuziladi. Bundan tashqari, 9-sinf adabiyot darsligida berilgan dostondagi so'zlarning izohli lug'ati ham 5 soatlik dars jarayonida o'qituvchiga asosiy dasturulamal bo'lib xizmat qiladi<sup>41</sup>.

"Alpomish" dostonining matni ustida ishlash o'qituvchidan katta mas'uliyatni talab qiladi. Chunki, o'qituvchi birgina shu doston misolida butun o'zbek xalq dostonchiligi, uning mazmun-mohiyati, badiiy adabiyotda tutgan o'rni, xalqimiz ma'naviyatiga ta'siri, o'quvchilarning komil inson bo'lib yetishishlaridagi ulkan vazifasi, bir so'z bilan aytganda, dostonchilikka xos bo'lgan badiiy estetik funksiyasi haqida ma'lumot bermog'i lozim.

Qalmoq elida talash bo'layotgan yori haqidagi xabarni eshitib, uni qutqarish uchun yo'lga otlangan Alpomishning holati o'quvchining ko'z o'ngida namoyon bo'lar ekan, o'qituvchi o'quvchilarga aynan o'sha o'rirlarni o'qib, shu tasvirlar orqali qahramonning ruhiy olamini o'quvchiga uqtirishi mumkin:

Siltab yuradi Boychibor,  
Yaqin bo'lar uzoq yo'llar,  
Yo'l yurar davlatli shunqor,  
Qalmoq yurtini axtarar,  
Yolg'iz ketdi bunda shunqor.  
Hakimbek qildi g'ayratdi,  
Qiladi otga shiddatdi,  
Izhor cho'lni to'zon tutdi,  
Yo'lning tanobini tortdi<sup>42</sup>

Qahramonning yo'l taassurotlari shoir tomonidan bayon etishda she'r vaznining o'ynoqi va yengil bo'lishiga ahamiyat beradi. Xuddi, ot yo'rtib yoki chopib

<sup>40</sup> Mirzayev T., Jabbor Eshonqul, Selami Fidokor. "Alpomish" dostonining izohli lug'ati. – Toshkent: Elmus-Press-media, 2007.

<sup>41</sup> Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiyo'rta ta'lrim maktabalarining 9-sinf uchun darslik, 1-qism. – Toshkent. 2014-yil.

<sup>42</sup> Mirzayev T., Zaripov H. - Alpomish. Toshkent: O'zbekiston, 1992-yil. 82-bet.

borayotganidek, qahramonning ruhiyati ham shu kayfiyatda bo‘ladi. She’rdagi bo‘g‘inlar va turoqlar soni shunga qarab o‘zgarib boradi. Otlar chopishi, jang manzaralari, personajlarning tezkor va shiddatli harakatlari aks etgan o‘rinlar yetti-sakkiz bo‘g‘inli she’rlar bilan ifodalanadi<sup>43</sup>. Biz bunday holatni barcha xalq dostonlari uchun tipologik hodisa hisoblangan qahramonning mardligi, jasurligi, botirligini namoyon qiluvchi musobaqalarda, jang lavhalarida ham ko‘rishimiz mumkin. Doston qahramonlari hamma vaqtadolat uchun, yurtning ozodligi va elning farovonligi uchun, or-nomus, iymon va din uchun jangga kiradilar. Shu sababli dostonlarda ro‘y beradigan bunday lavhalar adabiyotning boshqa janrlaridagi lavhalardan farq qilib, o‘quvchida og‘ir taassurot qoldirmaydi. Tushkun kayfiyat uyg‘onmaydi. Aksincha, o‘quvchi dostondagi kurash va jang lavhalarini zavq-shavq bilan, qahramonga havas qilib tinglaydi yoki o‘qiydi. Shuning uchun dostondagi ana shunday lavhalarni o‘qituvchining ohang bilan rolga kirishib o‘qib bermog‘i maqsadga muvofiqdir.

“Alpomish” dostoni xalqimizning asrlar davomida badiiy sayqal topgan adabiy merosi bo‘lishi bilan bir qatorda xalqimizning muqaddas urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, umuminsoniy fazilatlarini mujassamlashtirgan ulkan epik obidadir. Shuning uchun, o‘qituvchi dostondagi milliy urf-odatlar tasviri berilgan o‘rnlarni aytib o‘tishi, shuningdek, hozirgi kundagi urf-odatlar bilan solishtirib tushuntirishi mumkin.

Dostonda betakror an'analar, ota-bola munosabati, farzand tarbiyasi, yoshlarning ishq-muhabbatga qarashi, taqdir tadbiri, do‘slik va unga turfa xil munosabat kabi g‘oyalalar badiiy lavhalarda kuylangan. Dostonning didaktik ahamiyati esa mana shu voqealarga qahramonlarning munosabati, ishq-muhabbat va do‘slikni qadrlashi, farzand tarbiyalash va uni tushuna bilish, taqdirga bosh egish va ayni paytda hayot uchun kurash kabi umuminsoniy va ayni paytda sof milliy xususiyatlarda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi ushbu dostonni o‘tish paytida mana shu xususiyatlarga alohida e’tibor berishi, uni hayotiy voqealar bilan qiyosiy tarzda tushuntirib bermog‘i, shu

<sup>43</sup> Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiyo‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik, 1-qism. – Toshkent. 2014-yil, 44-bet.

yo‘l bilan yosh avlodning ongi va qalbiga milliy an’ana va qadriyatlarimizga mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘ota olishi kerak. Shundagina ushbu mavzuni o‘tishda oldinga qo‘yilgan maqsadga yetiladi.

## **2.2. Dostondagi obrazlar tizimini o‘rganishda interaktiv metodlardan foydalanish**

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar tarbiyasi barchaning birdek diqqat-e’tiborida turgan dolzarb masalardan biridir. O‘qituvchi tomonidan o‘quv jarayonida yoshlarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar, zamonaviy uslublarning qo‘llanishi, yoshlarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas’uliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini, shuningdek pedagogik faoliyatga nisbatan hurmatini kuchaytiradi.

Ta’lim islohotlarining zamonaviy bosqichi jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlarning tezkorligi, ta’lim mussasalariga qo‘yilayotgan yangi, yanada yuqori talablarga tezroq moslashish bilan bog‘liq dolzarb vazifalarni ilgari surmoqda. Bunday sharoitlarda ta’lim muassasasini rivojlantirish va zamon talablari darajasida faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar salmog‘i uzliksiz ortib boradi. Qo‘yilayotgan vazifalarning deyarli barchasi, tamoyil jihatidan, yangi talablarni keltirib chiqaradi va ularni hal qilishda jamoaning faqatgina mavjud tajriba asosida ish ko‘rishi yetarli bo‘lmay qoladi.

Ta’lim sohasidagi zamonaviy intilishlar – ta’lim jarayonini shaxs rivojlanishiga yo‘naltirishdir, ya’ni:

- o‘qishga bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirish, bu – katta hajmdagi ma‘lumotlarni o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- turli vaziyatlarda eng muqobil harakat qilish qobiliyatlarini rivojlantirish; ya’ni inqiroz sharoitlarida yosh mutaxassisni samarali harakat qilish ko‘nikmasi;
- ta’lim faoliyati subyektlarini avtoritardan insonparvar – muloqotli faol o‘zaro harakatga o‘tishi;
- faol ta’lim metodlarini keng targ‘ib etish hamda tajribalar almashish, seminar-treninglar, dasturlashtirilgan, kompyuterli ta’lim, o‘quv guruhli munozaralar, ishbilarmon o‘yinlar.

Bir necha yillik tajribadan kuzatilishicha, interfaol usullar o‘quvchi yoshlarning bilimli, erkin fikrlaydigan shaxs bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlashning asosiy garovi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ta’limda interfaol uslub – bu o‘quvchi bilan o‘qituvchi o‘rtasidagi ta’limni o‘zlashtirish munosabatini kuchaytirish, faollashtirish demakdir. **“Guruh bilan ishlash”**, **“Kompyuterli o‘yinlar”**, **“Aqliy hujum”**, **“Klaster”**, **“Aylana stol”**, **“Muammoni hal etish”**, **“Kim chaqqon-u kim epchil”**, **“Galereya bo‘ylab ”**, **“Stol ustida ruchka”**, **“Bahs-munozara”**, **“Bumerang”** kabi zamonaviy o‘qitish uslublari talabalar faoliyatini faollashtirishga qaratilgan. Amaliy mashg‘ulotlarda eng yaxshi natija berayotgan interfaol usullardan biri kichik guruhlarda ishlashdir. Ta’limning bu usuliga rangli suratlar, mavzuga oid kichik matnlar tarqatiladi va talabalar o‘zlarining mustaqil fikrlarini bayon etishga harakat qiladilar. Talabalarga aniq ko‘rsatma beriladi, o‘qituvchi esa o‘quvchilarni qo‘llab turadi, darsning yakuniy qismida ularning fikrlari umumlashtiriladi va bilimlariga baho beriladi. Dars boshlanishidan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarni 5-6 tadan kichik guruhlarga bo‘lib chiqadi va har bir guruh o‘ziga “Alpomish” dostonidagi qahramonlardan tanlab o‘zlariga nom berishadi, masalan, 1-guruh – “Alpomish”, 2-guruh – “Qaldirg‘och”, 3-guruh – “Qorajon” kabi. So‘ngra o‘qituvchi o‘quvchilardan nega aynan shu nomni tanlaganliklarini so‘raydi, o‘quvchilar guruhlarini nega bunday nomlaganliklarini

izohlab berishadi. Dars davomida o‘qituvchi har bir guruhgaga alohida tarqatma materiallar, krossvord taqdim etadi. Shuningdek, o‘quvchilar topshiriqlarga javob berib bo‘lgandan so‘ng, ularga qo‘srimcha tarzda o‘z fikrlarini bayon etishlari uchun savollar beriladi. Bu metod kichik guruhlari bilan ishslashga qaratilganligi sababli o‘quvchilarni darsga ko‘proq diqqatlarini jalg‘ etib, mavzuga qiziqishlarini orttiradi.

Yana bir interfaol usullardan biri “**Aqliy hujum**”dir. Bu usul o‘quvchilarning aqlini charxlab, ularni tezkorlikka, ilg‘orlikka undaydi. Aqliy hujum usulining og‘zaki va yozma shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga o‘quvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. O‘quvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda tezlik bilan aytishlari kerak bo‘ladi. Yozma shaklida esa berilgan savolga o‘quvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalariga qisqa tarzda va barcha ko‘rinadigan qilib bayon etadilar va ular yozuv taxtasiga magnit yordamida mahkamlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga:


- 1) Dostonda “tarzi gul yuzli, shirin so‘zli, siyosatli kishi”, deya ta’riflangan qahramon kim?
- 2) Hakimbek yilqi olmoqchi bo‘lgan qo‘riq kimdan qolgan edi?
- 3) Yetti yillik ayriliqdan so‘ng, yurtiga qaytgan Alpomishni Qultoy qanday tanib oladi?


kabi savollar berishi mumkin. Bu savolga, albatta, o‘quvchilar tezkorlik bilan javob berishlari kerak bo‘ladi. O‘quvchilardan savoliga javob olish davomida o‘qituvchi ularning mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklarini bilib oladi va shunga ko‘ra ularni baholaydi.

“**Stol ustida qalam**” usuli asosan talabalarni mutaxassislikka oid lug‘at boyligini oshirishda qulaylik yaratadi. Tilda muloqot qilish uchun faol so‘z boyligiga ega bo‘lish lozim. Bu usulni qo‘llashda o‘quvchilardan bir varaqdan qog‘oz olish so‘raladi va o‘qituvchi ularga dostonligi ba’zi so‘zlarning inglizchasini birin-ketin ayta boshlaydi. Masalan: doston, qahramon, ot, kurash, poyga kabi. O‘qituvchi har bir so‘zni aytganda, o‘quvchi tezgina uning o‘zbekcha tarjimasini yozmog‘i lozim.

Yozib bo‘lgach, ular qalamlarini stol ustiga qo‘yadilar va so‘ngra bir-birlarining qog‘ozlarini boshqa rangdagi qalam bilan o‘qituvchi nazorati yordamida tekshiradilar. Bu usul o‘quvchilarni o‘zaro ishlashga, ularni darsda faol bo‘lishga, chet tiliga ham qiziqishga undaydi.

Dostondagi obrazlar tizimini o‘tishdan oldin, avvalo, asardagi bosh va epizodik obrazlarni tasniflab tushuntirish lozim:






Ta’lim berishning samarali usullaridan biri –“**Klaster**” usulidir. Bu usul ko‘p variantli fikrlash, o‘rganilayotgan tushuncha o‘rtasida bog‘lanish o‘rnatish malakalarini rivojlantiradi, erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashga yordam beradi. Klaster tuzish ketma-ketligi:

- sinf yozuv taxtasi o‘rtasiga tayanch so‘z yoki ibora yoziladi;
- kichik guruhlarda yoki yakka tartibdagi o‘quvchilarga ushbu so‘z yoki iboraga tegishli bo‘lgan gaplarni yozish talab etiladi;
- tushuncha yoki g‘oyalalar o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rganish talab etiladi;
- yodga kelgan variantlarning barchasini yozish talab qilinadi.

Asar qahramonlari tasniflab tushuntirilganda, o‘quvchilarning eslab qolishi osonroq kechadi, shuningdek, ularga bu tasnif asosida qahramonlarning xarakter xususiyatlarini yoritish topshirig‘i berilishi mumkin. O‘quvchilarning bu topshiriqni bajarishlarida “Klaster” metodidan foydalanish yaxshi samara beradi.



O‘qituvchi o‘quvchilarni “Alpomish” dostonidagi obrazlar va timsollar haqida chuqur mushohada yuritishlari uchun uni 7-sinf darsligidan o‘quvchilar yaxshi tanish bo‘lgan “Ravshan” dostonidagi obrazlar tizimi bilan qiyoslab, ularni erkin fikrlashga yo‘naltirishi mumkin. Masalan:

## **Qiyoslang!**

<b>Alpomish</b>	<b>Ravshan</b>
<b>Barchinoy</b>	<b>Zulkumor</b>
<b>Boybo‘ri</b>	<b>Hasanxon</b>
<b>Boysari</b>	<b>Avazxon</b>
<b>Surxayl kampir</b>	<b>Kampir</b>
<b>Laylak</b>	<b>Mayna</b>
<b>Tovkaoyim</b>	<b>Oqqiz</b>

Shuningdek, dostondagi obrazlar tizimini tahlil qilishda didaktik o‘yin texnologiyalaridan ham oqilona foydalanish mumkin. **Rolli o‘yinlar** o‘ynaladigan darslar esa real hayotiy holatni keltirib chiqarar ekan, mulohaza qilish imkoniyatini yaratadi, ijtimoiy hamkorlik ahamiyatini oshiradi, ish jarayonini va ishdan tashqari holatlarda bo‘ladigan muloqotlarda foydalilanidigan amaliy so‘z boyligini oshiradi. O‘quvchilar rolli o‘yinlarda ishtirok etar ekanlar, bir-birlari bilan hamkorlik qilishga, birgalikda ishslash, ish yuzasidan muloqotlar olib borish, tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘rganadilar. O‘qituvchi dostondan qo‘yiladigan sahna ko‘rinishdan parchani o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos o‘rnlarni topib ijro ettirishi lozim. Masalan:

1-o‘quvchi (baxshi): Endi Boysari semiz qo‘ylarni so‘yib, o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining odamman deganini jiyib, sho‘rvasisiga to‘yib, go‘shtini korsonga sop, oldiga op kep qo‘yib: “Burungi kunimiz ham tuzuk ekan, ishimiz sop zo‘rga tushdi. Ertan choshka alplar kelsa, nima javob beramiz”, — deb, qarindoshlariga qarab, Boysari maslahat so‘rab turgan ekan.

2-o‘quvchi (Boysari):

Oh tortganda ko‘zdan oqar selob yosh,

Barchinoyim bo‘y yetgandir qalamqosh.

Maslahat ber o‘n ming uyli qarindosh,

Alplar kelsa nima javob beraman,

Tong otgancha muhlat olib turaman,

Qalmoqlarga qizim qanday beraman?!

Zahar bo‘ldi bul mening ichgan oshim,

Hammang mening elda yurgan sirdoshim,

Maslahat ber endi sendan so‘rayin,

Badbaxtlarga qanday javob berayin...

1-o‘quvchi (baxshi): Bu so‘zni eshitib, turgan xaloyiqlardan hech sado chiqmadi. Bir Yortiboy oqsoqol degani bor edi. Boysariga qarab, Yortiboy bir so‘z deb turgan ekan:

3-o‘quvchi (Yortiboy):

Xon Boysari, eshit aytgan so‘zimdi,  
Bu ellarga boshlab kelgan o‘zingdi.  
Tortinmay beraber endi qizingdi,  
Hazil bilma, mening aytgan so‘zimdi.  
Bu alplarni kuyov qilib olamiz,  
Mina elga toza erkin bo‘lamiz...

1-o‘quvchi (baxshi): Bu so‘zni Yortiboydan eshitib, Boysarining ko‘ngli buzilib, bu ham bir so‘z deb turgan ekan:

2-o‘quvchi(Boysari):

...Yuragimda ko‘pdir alamli dardlar,  
Mening qizim - sening singling, nomardlar.  
Qizing ber, deb mening ko‘nglim bo‘lasan,  
Suyagimni yongan o‘tga solasan...

1-o‘quvchi (baxshi): Bu so‘zni Boysari aytdi. Shu qarindoshlardan nima maslahat chiqar ekan deb, Barchin kelib, tinglab turib edi. Qarindoshlarning so‘zlarini eshitib, otasining ko‘ngli buzilganini bilib, Barchin ham bir so‘z deb turgan ekan:

4-o‘quvchi (Barchinoy):

Juda ham gangidi, boy ota, boshing,  
Maslahat berdiku qavmi-qardoshing,  
Ko‘p yig‘lama, jonim otam, darvishim,

Eshitmagin, qarindoshlar so‘zini,

Qarindoshlar bera qolsin qizini!

Xafa qilma, ota, menday qizingdi,

Qo‘ya ber alplarga mening o‘zimdi<sup>44</sup>.

Mana shu tarzda sahna ko‘rinish ijrosi davom ettiriladi. Yuqoridagi interfaol usul ham o‘quvchilarga doston qahramonlarining xarakter xususiyatlarini tahlil qilishni osonlashtirib, ularga qahramonlarning ruhiy holatlarini his qilishlariga yordam beradi. “Rolli o‘yin” metodini qo‘llash uchun o‘qituvchi o‘quvchilarni darsdan oldin tayyorlashi, rollarni o‘quvchilarga bo‘lib berib, ular bilan birga shug‘ullanishi lozim.

Bugungi zamonaviy pedagogik texnologiyalar taraqqiy etayotgan davrda “Alpomish” dostonini interfaol usullar orqali yangicha nuqtai nazardan amaliy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Alpomish” dostonini o‘rganishda o‘qitishning turli interfaol metodlaridan foydalanish mumkin.

Dostondagi obrazlar tizimini o‘qitishda o‘qituvchi tomonidan interfaol metodlardan foydalanishi o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, kerak joyda asar qahramonlaridan o‘rnak olishga chaqiradi. Masalan, “Timsollar tadriji” metodi orqali o‘quvchilar doston matnini qayta hikoyalashi mumkin, ya’ni asardagi asosiy timsollar ma’lum ketma-ketlikda joylashtiriladi. O‘quvchilar shu ketma-ketlikni buzmasdan, berilgan timsollar yordamida bog‘lanishli matn tuzishlari kerak bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarga quyidagi ketma-ketlikda timsollar berilishi mumkin:

1. Alpinbiy, Dobonbiy, Boybo‘ri, Alpomish, Shohimardon pir, Qultoy.
2. Boysari, Barchin, Qaldirg‘och, Qorajon, Ultontoz.

Bu metod o‘quvchilarning doston kompozitsiyasini qay darajada o‘rganganliklarini ko‘rsatish bilan birga, ularni asar qahramonlari haqida erkin va

<sup>44</sup> Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik, 1-qism. – Toshkent. 2014-yil. 18-19-betlar.

ijodiy fikrlashga undab, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.


Bundan tashqari, dostonidagi obrazlar tizimini o‘rganishda “Mozaika” usulidan ham foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarga “Alpomish” dostonidagi salbiy va ijobjiy qahramonlar aralash holda beriladi, o‘quvchilar esa ularni ikki ustunga ajratib yozadilar va o‘sha qahramonlarga tavsif beradilar. Masalan, topshiriq o‘quvchilarga quyidagicha berilishi mumkin:

**Qultoy, Boysari, Qaldirg‘och, Ultontoz, Ko‘kaldosh, Surxayl kampir, Boybo‘ri,  
Barchinoy, Qorajon, Shohimardon pir, Ko‘kaman, Toychixon, Suqsuroy.**

O‘quvchilar topshiriqni quyidagicha bajarishlari kerak bo‘ladi:

Ijobiy qahramonlar	Salbiy qahramonlar
Qultoy	Ultontoz
Boysari	Ko‘kaldosh
Qaldirg‘och	Surxayl kampir
Barchinoy	Ko‘kaman
Qorajon	
Shohimardon pir	

O‘rganilayotgan tushuncha o‘rtasida bog‘lanish hosil qilish uchun “Klaster” metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlariga erishish uchun ularga doston qahramonlaridan bir nechtasini keltirib, ularning bir-biriga qanday bog‘lanishlarini izohlashni topshiriq qilib beradi. O‘quvchilar quyidagi berilgan doston qahramonlarini birlashtiruvchi voqeа va sabablarni keltiradilar. Masalan, Alpomish va Barchinoyni birlashtiruvchi sabab, ularning tug‘ilishidan juft qilib yaratilganligi ya’ni beshikkerti qilinganligi bo‘lsa, Qaldirg‘och esa o‘zbek yigitining or-nomusini, sha’nini himoya qilishga chorlagan, asarda keyingi voqealarning davom etishiga sababchi bo‘lgan obraz bo‘lib, Qorajon doston davomida haqiqatni himoya qiluvchi, ahdiga sodiq qahramon sifatida gavdalaniadi.



Dars davomida o‘quvchilarning diqqatini yanada jalg qilish, ularning asarga qiziqishini orttirish maqsadida “Pantomimika” usulidan ham foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilardan bir nafari markazga chiqadi va Ultontoz, Alpomish, Qaldirg‘och, Ko‘kaldosh, Yodgor, Qultoy singari qahramonlar nomlari yashirin ravishda shu o‘quvchiga ko‘rsatiladi, o‘quvchi qolgan guruhdoshlariga qahramonlarni harakatlar orqali ko‘rsatib berishi va guruhning qolgan a’zolari bu harakatlar orqali asar qahramonlari nomini topishi zarur. Masalan, bir o‘quvchi chiqib, mashaqqat bilan yoy ko‘tarish harakatini ko‘rsatsa, o‘quvchilar uning Yodgor ekanligini payqab olishlari mumkin. Yoki yana bir o‘quvchi chiqib, Alpomish qaytganligini bilib taxtdan tushib, uning ortiga yashirinishga uringan, ko‘zları bejo qahramonning harakatlarini ko‘rsatsa, o‘quvchilar uning Ultontoz ekanliklarini topishlari kerak bo‘ladi. Bu usul o‘quvchilarning turli vaziyatlarda eng muqobil harakat qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, jismoniy faoliykkä erishishlariga xizmat qiladi.

“Alpomish” dostonining obrazlar tizimini o‘rganishda muammoli vaziyatlardan foydalanish mumkin. Avvalo, dostondagi bosh va epizodik obrazlar tasniflanib, tushuntiriladi. So‘ngra, obrazlarga to‘xtalib, ular bo‘yicha muammoli savollar o‘rtaga

tashlanadi. “Alpomish” dostonida Yortiboy oqsoqol degan epizodik obraz mavjud. U haqida darslikning savol-javoblar qismida “Yortiboy obrazi tavsifiga e’tibor bering. U sizda qanday taassurot qoldirdi?” degan savol qo‘yilgan. Xuddi shu savol muammoli vaziyat yaratishga va shu muammoning atrofiga asarda mavjud bo‘lgan boshqa obrazlarni birlashtirish, uyushtirish va masala qamrovi markaziga o‘rab olishga asos bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda, eng avvalo, Yortiboy oqsoqolning tashqi ko‘rinishiga e’tibor qaratish zarur: “Majlisli kun bo‘lsa, to‘rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo‘sag‘aning oldida, kovushga joy bermay, kovush bilan aralashib, it yiqitish bo‘lib, poygabetda yotar edi. To‘rda o‘tirgan kattaman deb yurganlarning hech qaysisidan gap, sazo chiqavermagandan keyin, poygabetdan Yortiboy o‘rnidan turib, maslahat shul-da, - deb Boysarining so‘ziga javob berib, Boysariga qarab, bir so‘z deb turibdi:

Maslahat bermaymiz Boysariboyga,  
Osilmaymiz Boybo‘rining doriga<sup>45</sup>.

Ushbu matnda Yortiboyning bunday kulgili vaziyatda tasvirlanishi uning xarakteri, mustaqil fikrga ega emasligi, oqsoqol bo‘la turib, maslahat berishga qodir emasligini izohlash mumkin. Shu boisdandir, balki unga qarindoshlari orasida “to‘rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmagandir”. O‘quvchilarda u o‘n ming uyli qarindoshlari Boysariga jo‘yali bir maslahat bera olmaydi, balki o‘z jonini o‘ylaydi, degan fikrlar tug‘ilishi mumkin. Ayni paytda, o‘qituvchi shu fikrga qarama-qarshi fikrlarni yuzaga keltirishga qaratilgan muammoni o‘rtaga tashlab, vaziyatni jonlantirib yuborishi mumkin. Masalan, “Yortiboy oqsoqolni faqat salbiy bo‘yoqlar bilan bezatadigan bo‘lsak, uning Boysariga sadoqatli ekanligi haqida nima deya olasizlar?”, degan savolni berib, qahramonning “Qayga ko‘chsang, bizlar birga boramiz<sup>46</sup>”, deya unga birlikni taklif etishi haqidagi fikri muammoli vaziyatni yuzaga keltirish uchun kifoya qiladi. Aksincha, bo‘lishi ham mumkin, ya’ni guruhda keying ijobjiy fikr paydo bo‘lganida, yuqoridagi salbiy munosabatlarning zamini o‘qituvchi

<sup>45</sup> Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik, 1-qism. – Toshkent. 2014-yil, 13-bet.

<sup>46</sup> O’sha asar. 14-bet.

tomonidan o‘rtaga tashlanib, munozaraga asos topilishi mumkin. Buning natijasida, jamoa orasida Yortiboy oqsoqolning el tinchligi, qon to‘kilishining oldini olishiga qaratilgan ijobiy va Boysarining ruhiy iztiroblarini anglamasligi, o‘z qondoshlari tinchligi hamda o‘zga yurda muqim o‘rnashib olish ilinjida Barchinoyni qalmoqlarga qurbon qilish taklifiga oid salbiy qarashlar yuzaga kelishi mumkin.

Shu xulosalarning o‘zi ham guruh a’zolari tomonidan har xil fikr-mulohazalar asosida Yortiboy timsoli munosib bahosini olishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ba’zilar Yortiboy oqsoqol qon to‘kilishining oldini olishni, yurt tinchligini, birgina qizning noroziligi tufayli butun bir xalq jabr ko‘rishi mumkinligini inobatga olganligi so‘zlashsa, ayrimlar bu holatni or-nomus, erk masalasiga bog‘lashadi, ya’ni xalq birgina qiz timsolida o‘z or-nomusi, jasorati, vijdonini ko‘radi, uni yov qo‘liga topshirib qo‘yish mard otalar, akalar ishi emasligini isbotlab berishga intilishadi. Ular hatto Boysarining “Mening qizim sening singling, nomardlar” jumlasini keltirib, o‘z fikrlarini isbotlashlari mumkin.

Ko‘rinyaptiki, birgina kichik epizodik obraz orqali muammoli vaziyat yaratib, asarning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini ochishga qaratilgan jonli ilmiy babsni keltirib chiqarishga sabab bo‘lishi mumkin. Dostondagi boshqa yetakchi va epizodik obrazlar misolida ham xuddi shunday muammoli savollar, vaziyatlar tashkil etish, dars samaradorligini, natijaviyligini oshirishga xizmat qiladi. Buning uchun o‘qituvchi o‘z mahoratini ishga solib, o‘quvchilarga beriladigan savol-topshiriqlarni puxta, asarning janr xususiyatiga, o‘quvchining yosh va o‘zlashtirish darajasiga qarab tanlashi, darsni o‘zining yetakchiligi va o‘quvchilarning hamkorligi asosida tashkil etishi lozim. O‘quvchilarga muammo tanlashda asarning eng kichik bir qirrasi yoki obrazi bo‘lsada, asarning asosiy mazmunini ochishga qaratilgan bo‘lishi va o‘quvchilarni aniq maqsadning yechimi tomon yetaklovchi mohiyat sari yo‘naltirishi kerak.

Yuqorida misollar bilan keltirilgan har bir usul belgilangan muayyan maqsadga erishishda o‘z o‘rnida ishlatilsa, u, shubhasiz, faoldir. Pedagogik texnologiyalar o‘quvchilar faolligining yuqori darajasini ta’minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan bo‘lishi zarur.

## **2.3 Muammoli ta’lim texnologiyalari orqali dostondagi ziddiyatlarni tahlil qilish.**

Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarining ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot darslarida muammoli ta’limning tashkil etilishi dars sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Hozirgi kunda fidoiy o‘qituvchilarining ijodiy izlanishlari orqali muammoli ta’limning zamonaviy shakllarini o‘zida mujassamlashtirgan bir qancha darslar yuzaga keldiki, bugungi kunda bunday dars ishlanmalaridan viloyatimiz ona tili va adabiyot o‘qituvchilari samarali foydalanib kelmoqda.

Ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir o‘qituvchi dars jarayonida muammoli ta’lim usulini qo‘llash uchun, avvalo quyidagi ketma-ketlikka rioya qilishlari lozim.

- muammo qo‘yish;
- muammoni xarakterlovchi sharoitni o‘rganish;
- qo‘yilgan muammoni hal qilish;
- yechimning to‘g‘riligini asoslash;
- muammoning yechimini izlash va hal qilish jarayonida paydo bo‘lgan bilimlarni aniqlash;
- muammoni tizimlash, motivlashtirish va umumlashtirish;
- muammoning yechimini o‘rganish, uni yanada ixcham va qulay yo‘llarini izlash.

Muammoli ta’limning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u o‘quvchini qo‘yilgan muammo yechimini topish uchun ilmiy-ijodiy tafakkur yuritish, jadal va mantiqli fikrlash, so‘z va atamalar, asar g‘oyasi hamda ma’nosini o‘zaro qiyoslash, o‘zi uchun eng to‘g‘ri yechim tanlash imkoniyatlarini beradi. Bu

texnologiya o‘quvchining imkoniyatlaridan o‘zaro uzviylik va uzlusizlikda foydalanish, izchil va mantiqiy fikrlash darajasini yaxshilaydi. O‘rganuvshi subyektning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlanishiga olib keladi, xususiy intellektual iste’dod qirralarini oshishga yo‘naltiradi. Muammoli ta’limda individ ruhiyati, uning o‘zlashtirish qobiliyati, bilim darajasi, ijodkorlik va omilkorlik fazilatlari yuzaga chiqadi, ko‘rinadi. Mantiqiy fikrlash, xato qilmaslik kabi zaruriyatlarning paydo bo‘lishi o‘quvchini izlanish va kashf qilishga yo‘naltiradi. Uni shaxs sifatida o‘zligini anglashga, o‘z bilimi va iqtidorini o‘zgalarga namoyish qilish istagini tug‘diradi.

Dostonda bir qancha asosiy va ikkinchi darajali obrazlar mavjud. Ularni o‘rganishda, avvalo, obrazlar tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni tahlil qilish, o‘quvchilarga muammoli savollar, topshiriqlar berish asosida qahramonlar ruhiyatini, xarakterini, dostondagи o‘rnini ochib berishga harakat qilish zarurdir.

O‘quvchi oldiga bilim berishga yo‘naltiradigan masalalarni qo‘yishda ham, uning ma’naviyatini shakllantirish yo‘lida ham muammoli savollar muhim o‘rinni egallaydi. Bizningcha, “Alpomish” dostonini o‘rganishda ularning yirik hajmga ega ekanligini e’tiborga olib, turli xil muammoli ta’lim usullaridan, yangicha metod va texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Muammoli usuldan badiiy asar g‘oyasi, obrazlari to‘g‘risida fikr yuritish, qiyoslash, nazariy ma’lumotlarni o‘rgatish jarayonida foydalanish mumkin.

Muammoli ta’lim natijasida o‘quv materiallarining ta’lim oluvchi xotirasiga yaxshi joylashishi va uning mustaqil fikrlash doirasi kengayishi darajasi birmuncha yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Va hattoki, inson hayotida shu kabi murakkab vaziyatlarga tushib qolganida, yo‘l topib, chiqib ketishiga yordam beradi.

Dars jarayonida tanlangan muammo hajmi, qamrov doirasi yoki, umuman, mohiyatidan qat’iy nazar mavzuning yoritilishiga xizmat qilmog‘i kerak. O‘qituvchi jamoa fikrini to‘g‘ri tomonga yo‘naltirib yuborishi uchun ko‘maklashishi, masalaning yangi qirralarini ochib berishga yordam beruvchi qo‘srimcha muammoli savollarni o‘rtaga tashlashi orqali erishishi mumkin.

“Muammoli vaziyat” usuli uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi zarur. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda, yechimni topa olmaslik, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarning yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” usuli qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar<sup>47</sup>.

Dostondagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda o‘qituvchi Keys-stadi, kichik guruhlarda ishslash, savol-javob, tahlil usuli, “Tarmoqlar” metodlardan foydalanishi mumkin. “Keys-stadi” usuli orqali o‘qituvchi tomonidan “Alpomish” dostoni bo‘yicha muammoli savollar o‘rtaga tashlanadi va bu savollar kichik guruhlarda muhokama qilinadi.

<i>Muammoli vaziyat</i>	<i>Muammoli vaziyat Sabablari</i>	<i>Muammoli vaziyat yechimlari</i>

Asar ustida ishslash jarayonida o‘quvchilar aqliy faoliyatining harakatchan va tezkorligi materialning qanday taqdim etilayotganligiga, uni tushuntirishda o‘qituvchi tomonidan berilayotgan savollarning mazmuni ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. “Asar ustida ishlar ekan o‘qituvchi barcha holat va xulosalarni tayyor holda taqdim etmay, bilimlar pardasini asta-sekinlik bilan ochadi. O‘qituvchi bunday yo‘ldan borganda o‘quvchini qiyoslash, taqqoslash, isbotlash kabi mustaqil aqliy faoliyatga undaydi va shu yo‘l bilan ularning muayyan xulosaga kelishlariga ko‘maklashadi,<sup>48</sup>” – deydi pedagogika fanlar doktori Qunduzxon Husanboyeva. Masalan, 9-sinfda

<sup>47</sup> Innovatsion texnologiyalar: nazariya va amaliyot. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T., 2011, 38-bet.

<sup>48</sup> Husanboyeva Q. Adabiyot-ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili.T., 2009, 163-bet.

“Alpomish” dostoni tahlili jarayonida o‘quvchilarga quyidagi muammo bilan murojaat qilish, o‘quvchini mustaqil fikrlashga bilan birga milliy ongini ham rivojlantirishga zamin bo‘ladi:

1)Doston sujetiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Alpomish bilan otasi Boybo‘rining baxil va saxiy haqidagi suhbatida Alpomish tilidan baxil va saxiyni namoyon etuvchi uch holat keltiriladi: “1-Vaqtibevaraqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo‘lsa, ko‘nglini xushlab jo‘natsa, bul ham saxiy; agar joy bor bo‘la turib, joy yo‘q deb qo‘ndirmay jo‘natsa, bul odam baxil. Vaqtibevaraqt bir kishi mozorotning qabatidan o‘tsa, chap oyog‘ini uzangidan chiqarib, odamlarning haqqiga duo qilib o‘tsa, bul ham saxiylik; agar har kim mozordan o‘tganda, chap oyog‘ini uzangidan chiqarmay, mozorotning haqqiga duo qilmay o‘tsa, bul ham baxil. Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan.”<sup>49</sup> Baxillikni namoyon etuvchi holatlar ko‘p, lekin dostonda nega aynan mana shu uch holat berilgan?

Bu savolga o‘quvchilarda turli xil fikrlar paydo bo‘lishi tabiiy, o‘qituvchi har bir o‘quvchining fikrini eshitib, ularni umumlashtirib, oxirida o‘zi yakuniy javobni berishi zarur: Dostonda yosh avlod vakili Alpomish tomonidan qilingan taklif — zakot to‘lash Qo‘ng‘irot —Boysun elini bir-biridan ajralishga olib keladi. Xalq ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarni chuqur ilmiy tahlil asosida atroflicha izohlab o‘tirmaydi. Shuning uchun uzoq kutilgan farzand — Alpomishning mulla bo‘lishidagi bir belgi “zakot” tushunchasi bilan bog‘lanadi. Uzoq o‘tmishda umuman soliq yig‘uvchilarni zakotchi deb atash odati bo‘lganligini hisobga olsak, Alpomish taklif qilgan zakotning ma’nosini soliqqa yaqin ekani ravshanlashadi. Boysarining nutqida ham bu mulohaza takrorlanadi. U akasining o‘g‘li borligini yuziga solganini, akasiga zakot berguncha o‘zga yurtda yashagani ma’qulligini aytadi. Vaholanki, islom dinida zakotdan hech kim voz kechgan emas. Aksincha, Allohnning zakot berishga yetkazgani uchun shukr qilingan. Mehmon kutish va qabristondan o‘tayotganda, oyog‘ini uzangidan chiqarib o‘tish holatlari esa o‘zbek xalqiga xos mehmondo‘stlik va marhumlarga bo‘lgan hurmat ifodasining namunasidir.

<sup>49</sup> Mirzayev T., Hodi Zarif. Alpomish. - Toshkent, O‘zbekiston, 1992-yil, 9-10-betlar.

- 2) Otasining ra'yiga zid bo'lsa-da, akasini xatarli safarga undayotgan Qaldirg'ochning xatti-harakatlariga qanday baho berasiz?
- 3) Zakot masalasida kim aybdor? Boybo'rimi yoki Boysari?


Bu kabi savollarga o'quvchilar to'liq javob berishlari, keng fikrlashlari uchun ularga yuqorida "keys-stadi" usuli bo'yicha jadval berib, muammoni tahlil qilishlarini so'rash mumkin:

Muammoli vaziyat	Muammoli vaziyat sabablari	Muammoli vaziyat yechimlari
O'n ming uqli qo'ng'irot elining Boysun-Qo'ng'irot yurtidan bosh olib ketishiga nima sabab bo'ldi?	Noo'rin so'ralgan zakot; Boysaridagi qiziqqonlik, johillik, ma'rifatsizlik; G'urur ustun kelib, akaning o'z ukasini yo'lidan qaytarmaganligi;	Har qanday vaziyatda o'ylab, so'ng qaror qabul qilish lozim. Aks holda, bunday qaror insonning birgina o'zigamas, atrofdagilarga ham zyon keltirishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini tinglab, umumlashtirib, tarix, psixologiya fanlari bilan bog'lab o'zi yakuniy xulosaviy fikrni aytadi. Shu kabi muammoli savollar o'quvchilarni o'z fikrlarini erkin va mustaqil bayon qila olish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, bu o'rinda o'qituvchi tomonidan fanlararo integratsiyaga ham erishiladi va bu o'quvchilarning xalqimiz tarixiga qiziqishini orttirib, mavjud bilimlarini mustahkamlaydi, asarning mohiyatini yanada chuqurroq tushunishlariga xizmat qiladi.

Janubiy koreyalik O In Kyong "Alpomish" va "Jumong" dostonlari materiallari asosida o'zbek va koreys qahramonlik eposlari qiyosiy tahliliga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini yoqlab, unda har ikki dostonni tadqiq etish orqali ikki xalq ruhiyatidagi mushtarak jihatlarni ochib berishga harakat qilgan. Olima dostonlardagi asosiy qahramonlarning o'xshash jihatlarini, uch avlod sarguzashtlarini solishtirib tadqiq etadi. "Jumong" dostonida uch avlod – Hayemosu, Jumong, Yuri sarguzashtlari, "Alpomish" dostonida ham uch avlod, ya'ni Boybo'ri bilan Boysari,

Alpomish va uning o‘g‘li Yodgor taqdiri bayon etilganligi uchun bu qahramonlarni koreys qahramonlari bilan bir o‘ringa qo‘yib o‘rganadi. O‘qituvchi shu o‘rinda shunday muammoli vaziyat yaratish mumkinki, bu o‘quvchilarni o‘ylashga, fikrlashga majbur qilsin. Ya’ni, o‘qituvchi “Jumong”da tasvirlangan bu uch avlod vakiliga Boybo‘ri bilan Boysarini tenglashtirmay, olimaning tasnifini o‘zgartirishini, ular o‘rniga Alpomishning ajdodi Alpinbiyni kiritishini aytadi. Va shu o‘rinda quyidagi muammoli savol bilan murojaat qiladi: “Ko‘rib turganingizdek, olimaning tasnifiga o‘zgartirish kiritib, bu ro‘yxatga Boybo‘ri bilan Boysarini kiritmadik. Nima uchun?”.



O‘quvchilar ushbu savolga javob topishlari uchun doston bilan yaxshi tanish bo‘lishlari, mantiqqa tayanishlari kerak bo‘ladi. Doston kompozitsiyasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, merganlikda, yoy tortishda Alpomishga teng keladigan qahramon yo‘q, shu o‘rinda koreys milliy qahramoni Jumongga ham. Hayemosu va Yurida ham bu qobiliyat mavjud. “Alpomish” dostoniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Alpomish Alpinbiy bobosidan qolgan parli yoyni ko‘tarib tortadi<sup>50</sup>. Dostondagi ayni shu o‘rindan o‘quvchilar Alpinbiy ham mohir mergan, kuch-quvvatga to‘la qahramon bo‘lganligini bilib olishlari mumkin. Yodgor ham yetti yoshida o‘n to‘rt botmon parli yoyni ko‘tarib, hammani lol qoldiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Alpinbiy va Yodgor ham Hayemosu, Yuri kabi merganlik qobiliyatiga ega bo‘lishgan.

<sup>50</sup> Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiyo‘rta ta’lim maktabalarining 9-sinf uchun darslik, 1-qism. – Toshkent. 2014-yil, 11-bet.

Haqiqiy hukmdorlik belgisi aslzoda ekanligiga qarab belgilanmaydi, balki, xalqni adolat bilan boshqarib, uni birlashtirishga urinishi bilan belgilanadi. Boybo‘ri bilan Boysari esa birgina zakot masalasi tufayli o‘n olti urug‘ qo‘ng‘irot elining ajralib ketib, musofirlikda qiyinchiliklarga duch kelishlariga sabab bo‘lishdi. Agar ular mamlakatni birlashtirishga, xalqni birlikka chaqirishganda, ularni yuqoridagi qatorga kiritishimiz mumkin edi.

Dostondagi ziddiyatlarni tahlil qilishda muammoli ta’lim texnologiyalaridan “**Debat**” usulidan ham foydalanish yaxshi samara beradi. **Debatlar** – bu qarama-qarshi nuqtai-nazarlarning o‘zaro bahsi (to‘qnashuvi) bo‘lib, u o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, turli masalalarni o‘rganish va o‘zlari haq ekanligiga boshqalarni ishontirishga o‘rgatadi. O‘quvchilar bilan debat o‘tkazganda, 3 ta tamoyilga amal qilish kerak:

1. Debatlar ko‘p narsaga o‘rgatadi (Chunki, debat o‘tkazishdan maqsad faqat g‘alaba qozonish emas, balki asosiy maqsad debatlar yordamida yangi bilimlarni egallashdir).
2. Jarayonga faol ishtirok va vijdonlilik majburiyati (Bu tamoyil debatning o‘zagi bo‘lib, noto‘g‘ri argument keltirish va savollarga javob berishda mantiqan noto‘g‘ri yo‘ldan ketishning oldini oladi) .
3. O‘zaro hurmatni saqlash (Debat ishtirokchilarining shaxsiga qasddan teskari aloqaga kirishmaslik shart, o‘zga o‘quvchi tomonidan aytilgan nazariya yoki fikrga qarshi chiqayotgan bo‘lsa, uning obro‘sini to‘kish maqsadga muvofiq emas. Chunki, debat g‘oyalar va bu g‘oyalarning to‘qnashuvidan iborat).

Debatda 2 ta jamoa ishtirok etadi. 1-jamoa: Tasdiqlovchi tomon sifatida. 2-jamoa: Qarama-qarshi yoki inkor etuvchi tomon sifatida. Debatlarda quyidagi mahoratlar zarur bo‘ladi: Tanqidiy tafakkur (tanqidiy fikr yuritish), tadqiqiy malakalar, tashkiliy malakalar. O‘quvchilarda tinglash va yozma qayd qilish va taqdim etish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi.

O‘tkaziladigan debatning mavzusi aniq, tasdiqlovchi tugallangan fikr shaklida bo‘lishi kerak. Masalan, “Alpomish” dostonidan Alpomish obrazi misolida “Debat” metodining amalga oshirilish jarayoni tavsiya etiladi. Ishtirokchilar ikki guruhga

bo‘linishadi. 1-guruh Alpomishning xarakter xususiyatlaridan kelib chiqib, unga ijobiy tavsif berib, uning xatti - harakatlarini oqlashsa, 2-guruh esa ularga qarama-qarshi fikr bildirishlari va fikrlarini isbot bilan keltirishlari kerak bo‘ladi.

<b>1-guruh</b>	<b>2-guruh</b>
Alpomishning o‘ziga xos voqelik bilan bog‘liq jihatlarini oqlaydi.	Alpomishning ojizlik jihatlarini, kamchiliklarini qoralaydi.
Alpomish mard va jasur.	Alpomish qo‘rroq va ojiz.
U or-nomusni har narsadan ustun qo‘yadi.	Alpomish o‘zining shaxsiy fikriga ega emas.
Do‘shta sadoqatli, yoriga vafodor.	Singlisi Qaldirg‘och sabab bo‘limganda, u yorini qutqarish kerakligi haqida o‘ylamas edi.
Vatanparvar o‘zbek o‘g‘loni.	Surxay kampirning nayranggiga uchmasligi kerak edi
...	...

Muammoli ta’lim texnologiyasining bu turi dostondagи qahramonlar timsoliga to‘liq tavsif berish, o‘z shaxsiy fikrlarini izohlash bilan birga o‘z qarashlarini, nuqtai nazarini asosli bayon etish, aniq, ravon, tushunarli tilda fikrlarni yetkazib berish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi

O‘quvchining asarni badiiy o‘zlashtirishi uning tafakkuri va milliy ongi darajasidan ayri hol emas. O‘quvchi bilan asar qahramonlari orasidagi munosabat va aloqadorlik qanchalik samimi, yaqin bo‘lsa, o‘quvchi shaxsiyati o‘zligini shunchalik to‘la namoyish etadi. O‘quvchi asardagi hodisalarini va hayot hodisalarini taqqoslar ekan, asl haqiqatni muhokamalarda topishga intiladi. Barchamizga ayonki, qarama-qarshi fikrlar o‘rtasida tayyor haqiqat emas, yechimini kutayotgan muammo turadi. O‘quvchining shu muammoni his qilib, ma’lum bir qarashlarga asoslanib, shaklga solishi haqiqatni izlash boshlanganidan dalolatdir<sup>51</sup>. O‘quvchi asarga qiziqishi va asar orqali o‘z-o‘zini tarbiyalashi uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchini tinglashi va uning tuyg‘ularini tuya bilishi lozim.

<sup>51</sup> Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. Toshkent, 2007 yil.

### **III bob. Ishning amaliyotga tatbiqi**

#### **3.1. Tajriba - sinov natijalari**

Adabiyot fanidan Davlat ta’lim standarti bo‘yicha umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida (barcha ta’lim olish tillari bo‘yicha) adabiyot fanini o‘rganish bosqichlari va fanni o‘qitishning maqsad va vazifalari quyidagicha:

Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitishning asosiy maqsadi: milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish; o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiatni, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma’naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitishning asosiy vazifasi: o‘quvchilarning og‘zaki nutqi adabiy til me’yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash, nutqiy kompetensiyani o‘stirish; yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish hamda adabiyot fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida xalq og‘zaki ijodi namunalarini sinfda o‘qish, o‘rganish bilan birga, asarlarni mustaqil o‘rganish va sinfdan tashqari o‘qishga ham alohida e’tibor qaratiladi. Bu yerda mavzuviylikka, syujetlilikka nisbatan ko‘proq ahamiyat beriladi. O‘quvchilarning ijodiy o‘y-xayollarini, individual imkoniyatlarini badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va takrorlanmas san’atkorona tasvirlar orqali kengaytirish asosiy o‘rin tutadi. O‘quvchilarda adabiy asarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish malakasi shakllantiriladi. Garchi badiiy asarlarning har birini o‘rganishda tarixiy-estetik tamoyillarga to‘la tayanilsa-da, ularni izchil xronologik tartibda emas, balki muayyan mavzular (ruknlar) ko‘lamida o‘rganiladi.

Uzviylik va uzlusizlik dastur tayangan asosiy tayanch nuqtalaridan biridir.

Dasturda alohida olingan nisbatan “qiyinroq” va “murakkabroq” asarlarning bevosita tarixiy-adabiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan aloqadorlikdagi tahlilining ko‘zda tutilganligi o‘quvchilarning umumiyligi adabiy jarayon haqidagi yaxlit va nisbatan tizimli tasavvurlarining shakllanishiga imkon beradi. Ta’limning turli bosqichlarida o‘rganish uchun saralab olingan asarlarga qo‘yiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yo‘nalishi, o‘quvchi shaxsining yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda uning kamoloti uchun ko‘rsata oladigan ijobiy ta’siri, milliy va umuminsoniy g‘oyalarga uyg‘unligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan o‘rni singari belgilar asos qilib olinadi. Chuqurlashtirilgan maktab (sinf)larda adabiyot fanini kengroq o‘rganish maqsadida o‘quv dasturida qo‘sishimcha ikki soat vaqt ajratilgan. Bu ikki soatning bir soati (34 soat) oddiy sinflar (A2) uchun tuzilgan o‘quv dasturi mavzulari tarkibida berildi, ya’ni 5-sinfda A2: 102 soat; A2+: 136 soat davomida o‘rganiladi. Ajratilgan ikkinchi soatda esa, 5-6-sinflarda “Ifodali o‘qish”, 7-9-sinflarda esa, “Notiqlik san’ati” yondosh dasturlari o‘rganiladi. Badiiy asarlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi nazarda tutiladi.<sup>52</sup>

Adabiyot fanidan tasdiqlangan dastur va taqvim-mavzu rejaga ko‘ra “Alpomish” dostonining o‘rganilishini ko‘rib chiqdik.

Umumta’lim maktablarida “Alpomish” dostonini o‘rganish uchun 5 soat ajratilgan. Uning taqsimoti esa quyidagicha:

- turkiy xalqlar madaniyati va ma’naviyati shakllanishida “Alpomish” dostonining o‘rni, doston ko‘lamining estetik tafakkur va turkiy sultanatchilik bilan bevosita bog‘liqligini o‘rganish uchun 1 soat;
- dostonda o‘zbek milliy ruhiyati va urf-odatlari tasviri, mardlik, sadoqat, ezgulik, iymonga egalik fazilatlarining Alpomish, Qorajon, Oybarchin, Qaldirg‘och obrazlari orqali ifodalanishini o‘rganish uchun 3 soat;
- asarning til xususiyatlari, dostonda qo‘llanilgan tasvir usullarini o‘rganish uchun 1 soat;
- shuningdek, nazorat ishi: insho va uning tahlili uchun 2 soat ajratilgan.

<sup>52</sup> Ushbu Dastur 6.11.2017 yil Xalq ta’limi Vazirligi tomonidan tasdiqlangan.

O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari lozim bo‘lgan asar “Alpomish” dostoni<sup>53</sup> hisoblanadi.

Shuningdek, “Alpomish”da badiiy yo‘sinda tasvirlangan turkona hayot tarzining Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub “Qutadg‘u bilig” asarida didaktik yo‘nalishda aks ettirilishi, asardagi favqulodda mubolag‘alar katta maqsadlar yo‘lida kurash olib borgan turkiy xalq tabiatidan kelib chiqadigan xususiyatlar ekanligi, dostonning bizgacha badiiy yuksak holda yetib kelishida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining xizmatlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga erishish ko‘zda tutilgan.

“Alpomish” dostonining o‘rganilishi uchun umumta’lim maktablarida 5 soat vaqt ajratilganligi maqsadga muvofiq deya olamiz, chunki, darslikda berilgan dostondan parcha katta hajmni tashkil qilgani sababli o‘quvchilarning doston haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishlari uchun 2-3 soat kamlik qiladi.

Pedagogik amaliyot jarayoni davomida interfaol metodlarni mavzu bo‘yicha moslab qo‘llanilishi darsning samaradorligini ta’minlashga xizmat qildi. Interfaol metodlardan “Sonlar tilga kirganda”, “Timsollar tadriji”, “Muammoli vaziyat”, “O‘rnini to‘ldiring”, “Rolli o‘yin”, “Tushunchalar tahlili”, “Qizil va yashil”, “Klaster” kabi metodlardan foydalanilganda o‘quvchilarning darsga qiziqishlari ortib, darsda e’tibor bilan o‘tirganlariga guvoh bo‘ldik. Ayniqsa, mavzuni mustahkamlash maqsadida foydalanilgan “Qizil va yashil” metodi o‘quvchilarning barchasini dars jarayoniga jalb qilib, diqqatlarini chalg‘itishlariga yo‘l qo‘ymadi. Shuningdek, darsda shovqin bo‘lishining oldi olinib, tartib yetarlicha saqlanishiga erishildi.

Muammoli ta’lim texnologiyalaridan “Bahs-munozara”, “Muammoli vaziyat”, “Debat” metodlari o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topish bilan birga milliy ongini ham rivojlantirishga zamin bo‘lib xizmat qildi.

---

<sup>53</sup> Umumiyl o‘rtalimning adabiyot fanidan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori, 71-bet.

“Timsollar tadriji”, “Klaster” kabi interfaol metodlar o‘quvchilarning dostondagi obrazlar tizimini o‘rganishda, doston qahramonlari va ularning xususiyatlarini mustaqil tahlil qilishlarida samarali usul sifatida xizmat qildi.

“Rolli o‘yin” metodidan foydalanish esa mavzuning yaxshi o‘zlashtirilishiga xizmat qilish bilan birga sinfda biroz tartibsizlik yuzaga keltirdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuqorida keltirilgan interfaol usullarning har biri belgilangan muayyan maqsadga erishishda o‘z o‘rnida ishlatilsa, u, shubhasiz, faoldir. Pedagogik texnologiyalar o‘quvchilar faolligining yuqori darajasini ta’minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan bo‘lishi zarurligi amaliyot jarayonida o‘z tasdig‘ini topdi.

### 3.2 Ochiq dars ishlanmasi

<b>Mavzu</b>	<b>“Alpomish”-o‘zbek xalq qahramonlik dostoni</b>
--------------	---

#### 1.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli

<b>Dars vaqtি: 80 daqiqa</b>	<b>O‘quvchilar soni –25-26ta</b>
<b>Dars shakli:</b>	Mavzu bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan nazariy va amaliy mashg‘ulot.
<b>Nazariy mashg‘ulot rejasi:</b>	<p>1. “Alpomish” dostoni haqida nazariy ma’lumot.</p> <p>2.“Alpomish” dostonida milliy ruh ifodasi.</p> <p>3.Dostondagi asosiy obrazlarni tavsify o‘rganish .</p> <p>4.Xulosa</p>
<b>Darsning maqsadi:</b>	<p><b>Ta’limiy:</b> O‘quvchining mavzuga oid ko‘nikmalarini hosil qilish, “Alpomish” dostoni orqali ma’naviy dunyoqarashini boyitish, komil insonni tarbiyalash, ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.</p> <p><b>Tarbiyaviy:</b> O‘quvchilarda mardlik, jasorat va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, insonning eng yaxshi fazilatlar sohibi bo‘lib yetishishida, mustaqil, erkin shaxs sifatida shakllanishida, o‘z-o‘zini tarbiyalashida adabiyotning, xalq og‘zaki ijodining rolini anglash.</p> <p><b>Rivojlantiruvchi:</b> O‘quvchilarda Vatanga muhabbat, tabiat va insonni</p>

	ulug‘lash, insoniy mehr-muhabbatni asrashga o‘rgatish. Og‘zaki nutqini rivojlantirish.
<b>Mavzuni o‘zlashtirish uchun zaruriy bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati</b>	<p>1.I.A.Karimov. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. –T.: O‘zbekiston. 2009.</p> <p>2.“Alpomish” dostoni.</p> <p>3.www.ziyonet.uz</p> <p>4.Xurshid Davron kutubxonasi sayti.</p> <p>5.Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. - T.: Sharq.2010</p>
<ul style="list-style-type: none"> <li>● <b>Pedagogik vazifalar:</b></li> <li>● “Alpomish” dostoni bilan tanishtirish;</li> <li>● Dostonning ahamiyati xususida ma’lumot berish;</li> <li>● Doston haqidagi nazariy tushunchalarni o‘rgatish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>● <b>O‘quvchi faoliyati natijalari:</b></li> <li>● “Alpomish” dostoni bilan tanishadilar.</li> <li>● Dostonning ahamiyati xususida ma’lumotga ega bo‘ladilar;</li> <li>● Doston haqidagi nazariy tushunchalarni yozib oladilar.</li> </ul>
<b>Ta’lim berish usullari</b>	“Sonlar tilga kirganda”, “Tushunchalar tahlili” metodi, “Muammoli savollar” usuli, “Qizil va yashil”, Bahs-munozara, “O‘rnini to‘ldiring”, “Debriefing”.
<b>Ta’lim berish shakllari</b>	Guruhlarda ishslash.
<b>Ta’lim berish vositalari</b>	Darslik, tarqatma materiallar, kompyuter, qo‘sishimcha adabiyotlar
<b>Ta’lim berish sharoiti</b>	Ko‘rgazmali jihozlar va texnik jihozlangan sinf xonasi.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og‘zaki nazorat: savol-javob, ijodiy yondashuv.

## 1.2.Darsning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
<b>Tayyorgarlik bosqichi</b>	<p>Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.</p> <p>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi, taqdimot tayyorlaydi.</p>	
<b>1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi  (10 daqiqa)</b>	<p>1.1.O'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzuga ko'prik yasaydi.</p> <p>Mavzu va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi</p> <p>1.2.Mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi. Kun hikmati e'lon qilinadi.(1-ilova)</p> <p>1.3.O'quvchilarni guruhlarda ishlash texnikasi qoidalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.4.O'tilgan mavzu bo'yicha "Sonlar tilga kirganda" metodidan foydalanib o'quvchilarning bilimi mustahkamlanadi.(2-ilova)</p> <p>1.5.Ishchi guruhlarning o'quv topshiriqlarini bajarishi e'lon qilinadi.</p>	<p>Tinglaydilar, yozib oladilar</p> <p>Savollar bilan murojaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'ladilar.</p> <p>O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar</p> <p>O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar.</p>

<p><b>2. Asosiy bosqich</b> <b>(25 daqiqa)</b></p>	<p>2.1. Mavzu bo‘yicha mashg‘ulot rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi.</p> <p>2.2. Taqdimotni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo‘yicha asosiy nazariy ma’lumotni tushuntirib beradi, “Alpomish” dostonining Safar baxshi tomonidan kuylangan varianti audio shaklida eshittiriladi.(4-ilova)</p> <p>2.3. “Tushunchalar tahlili” metodi orqali berilgan jadvalga dostondagi tushunchalarning izohini yozish topshirig‘i beriladi.</p> <p>2.4. O‘quvchilar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida muammoli savollar beradi.(5-ilova)</p> <p>2.5. Guruhlarga “O‘rnini to‘ldiring” metodi orqali dostondagi she’riy misralar o‘rni tushirilgan holda beriladi. O‘quvchilar ularni to‘ldirib, topshiriqni bajaradilar.</p> <p>2.5. Doston qahramonlari mustaqil tahlil qilinadi.</p>	<p>Jadvalining ustunini to‘ldiradilar.</p> <p>Yozadilar, tiinglaydilar.</p> <p>Jadvalni to‘ldiradilar</p> <p>Muammoli savollarga javob beradilar.</p> <p>O‘quvchilar topshiriqni bajaradilar.</p> <p>Tahlil qiladilar.</p>
<p><b>3. Yakuniy bosqich</b> <b>(5 daqiqa)</b></p>	<p>3.1. “Debriefing” usuli orqali doston haqidagi fikrlar xulosalanadi.</p> <p>3.2. Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, faol o‘quvchilar baholanadi. G‘olib guruh aniqlanib, rag‘batlantiriladi.</p> <p>3.2. Uyga vazifa qilib “Doston haqidagi taassurotlarim” mavzusida</p>	<p>Savollar beradilar</p> <p>Topshiriqni yozib oladilar.</p>

	insho yozish beriladi.	
--	------------------------	--

## **Mavzu: “Alpomish”-o‘zbek xalq qahramonlik dostoni.**

### **1-ilova**

#### **Dars rejası:**

- 1.“Alpomish” dostoni haqida nazariy ma’lumot.
2. “Alpomish” dostonida milliy ruh ifodasi.
- 3.Dostondagi asosiy obrazlar tavsifi .
- 4.Xulosa.

#### **Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** O‘quvchining mavzuga oid ko‘nikmalarini hosil qilish, “Alpomish” dostoni orqali ma’naviy dunyoqarashini boyitish, komil insonni tarbiyalash, ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.

**Tarbiyaviy:** O‘quvchilarda mardlik, jasorat va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, insonning eng yaxshi fazilatlar sohibi bo‘lib yetishishida, mustaqil, erkin shaxs sifatida shakllanishida, o‘z-o‘zini tarbiyalashida adabiyotning, xalq og‘zaki ijodining rolini anglash.

**Rivojlantiruvchi:** O‘quvchilarda Vatanga muhabbat, tabiat va insonni ulug`lash, insoniy mehr-muhabbatni asrashga o‘rgatish. Og‘zaki nutqini rivojlantirish.

#### ***Kun hikmati***

*Ilm o‘rgan, u sening yoshlik paytingda to‘g‘ri yurishingni ta’minlaydi. Katta bo‘lganingda buyuk shaxsga aylanishingda asosiy sabablardan bo‘ladi.*

*(Bobolarimizning o‘gitlaridan)*

O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi, har bir guruhga nom beriladi. 1-guruh – “Qo‘ng‘iroq”, 2-guruh esa “Boysun” deb nomlanadi. Guruhlarga sardorlar tayinlab olinadi. Yangi mavzuni boshlashdan oldin o‘quvchilarga o‘tilgan mavzu bo‘yicha savol topshiriqlari beriladi.

### **O‘tilgan mavzuni so‘rash**

“Sonlar tilga kirganda” metodi orqali o‘tilgan mavzu yuzasidan savollar beriladi.

Sonlar orqasida savollar yozilgan bo‘ladi:

1. O‘tkir Hoshimov hayoti haqida nimalarni bilasiz?
2. Yozuvchining qaysi romanlarini o‘qigansiz?
3. “Ikki eshik orasi” romanida qanday g‘oya ilgari suriladi?
4. O‘.Hoshimovning dramalarini sanang.



The game board has a light blue background with a decorative border. The title "SONLAR TILGA KIRGANDA" is centered at the top in a blue box. Below it is a 4x3 grid of numbers in yellow. The grid is organized as follows:

10	20	30
40	50	60
70	80	90
100	120	150

### **3-ilova**

### **Yangi mavzu bayoni**

“Algomish” dostoni qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunalaridandir. Epik mazmunning qahramonlik xarakteriga ega bo‘lishi uning bosh xususiyati hisoblanadi. Chunki, dostonning butun mohiyati va asosiy yo‘nalishini ana shu xususiyat belgilaydi. V.G.Belinskiyning ta’kidlashicha, “xalqning go‘daklik

zamonlarida uning hayoti ko‘proq botirlikda, qahramonlikda ifodalanadi”. Shuning uchun ham qadimiy qahramonlik eposi “xalqning faqat go‘daklik davrlarida ... uning kuch-qudrati va toza faoliyati faqat qahramonlik g‘alabalarida ko‘ringan zamonlardagina paydo bo‘lishi mumkin”.

Ko‘chmanchilik hayoti va patriarxal-urug‘chilik munosabatlari bir darajada saqlanib kelayotgan zamonlarda yaratilgan, jamiyat va inson hayoti masalalarini o‘ziga xos reallikda- qahramonlik va go‘zallik haqidagi xalq ideallari doirasida kuylagan “Alpomish” dostoni ham turkiy xalqlar patriarxal hayotidagi “epik bosqich”ning poetik ko‘zgusidir. Doston bir qancha turkiy va ularga yaqin yashagan ayrim turkiy bo‘lmagan xalqlar doirasida juda keng tarqalgan. Uning o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston holida; tojik, tatar, boshqird, O‘rta Osiyo arablari versiyalari ertak va rivoyatlar tarzida mashhurdir. O‘rta asr o‘g‘uz eposining muhim yodgorligi “Kitobi Dada Qo‘rqu” tarkibidagi “Bamsi Bayrak” asari o‘zining sujeti va kompozitsion qurilishi jihatidan “Alpomish” dostoniga juda ham yaqin turadi.


“Alpomish” dostoning o‘zbek shoir va baxshilari tomonidan kuylanib kelgan va folklorshunoslikka yozib olingan 30 dan ortiq varianti bor. Ana shu varintlari orasida eng mukammali va badiiy jihatdan pishiq ishlangani Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan variantdir. Bu variant 1939- yilda Hamid Olimjon so‘zboshisi bilan chiqdi. Turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlarda ham “Alpomish” dostoning turli variantlari bordir. “Alpomish” dostonining kurtaklari, patriarxal qabilalar hayotiga borib taqaladi. Dostonda ibridoij jamoa tuzumining yemirilishi, sinfiy ziddiyatlarning chuqurlashuvi, qabila kambag‘allarining qul qilinishi hamda feodal munosabatlarining shakllanishi tasvirlangan. Ilmiy adabiyotlarda «Alpomish» dostoni XVI asrda to‘la shakllangan deb ko‘rsatiladi.

“Alpomish” dostonining sujet sostavi va asosiy motivlariga diqqat qilsak, unda patriarxal-urug‘chilik munosabatlari va shu hayot tarzini tasvirlash asosiy o‘rin tutadi. Qolaversa, unda ayrim urug‘ oqsoqollarining hukmronlikka intilishidan iborat rivojlanmagan feodal munosabatlar tasviri ham mavjud. Dostonda aks etgan bunday

ijtimoiy hayot elementlari uning yaratilish tarixini belgilash uchun muhim ahamiyatga ega.

Slayd ko‘rinishida yangi mavzuga oid ma’lumotlar taqdim etiladi.

- ◎ “Alpomish” dostoni qadimiy qahramonlik eposining yorqin namunalaridandir. Epik mazmunning qahramonlik xarakteriga ega bo‘lishi uning bosz xususiyati hisoblanadi. Chunki, dostonning butun mohiyati va asosiy yo‘nalishini ana shu xususiyat belgilaydi. V.G.Belinskiyning ta’kidlashicha, “xalqning go‘daklik zamonlarida uning hayoti ko‘proq botirlikda, qahramonlikda ifodalanadi”. Shuning uchun ham qadimiy qahramonlik eposi “xalqning faqat go‘daklik davrlarida ... uning kuch-qudrati va toza faoliyati faqat qahramonlik g‘alabalarida ko‘ringan zamonlardagina paydo bo‘lishi mumkin”.



4-ilova

Alpomish dostonining Safar baxshi tomonidan kuylangan variant audio shaklida  
eshittiriladi(mp3)

5-ilova

### “Tushunchalar tahlili” metodi

1-guruh

<b>Elatiya</b>	chorva bilan shug‘ullanadigan qavmlar
<b>Paygabet</b>	bo‘sag‘a, poygak tomon
<b>Tabla</b>	ot boylanadigan joy
<b>Javlik</b>	hamma, yoppa
<b>Do‘g‘ilib</b>	yig‘ib, to‘plab
<b>Shabgir tortish</b>	tinmaslik, dam olmaslik
<b>Narmoda</b>	erkak tuya, xunasa, gey
<b>Shobir</b>	shov-shuv, ovoza

2-guruh

<b>Shamiyon qaytarib</b>	gerdayib, vahima qilib
<b>Poyim</b>	fahm, ma’no
<b>Quyonchiq</b>	Tutqanoq
<b>Jodirim</b>	jabr ko‘rgan
<b>Kulaband</b>	yechilmaydigan qilib, mahkam bog‘lash
<b>Chuyda</b>	bo‘yin sirtidagi yo‘g‘on tomir

<b>Bog‘onog‘i</b>	Boyagi
<b>Zinikiyib</b>	Qaqqayib

## **6-ilova**

“O‘rnini to‘ldiring” metodi orqali o‘quvchilarga dostondan she’riy parchalar keltirilib, ulardagи asosiy so‘zlar tushirib qoldiriladi. O‘quvchilar jumlalarni to‘ldirishlari kerak bo‘ladi.

### **1-guruh:**

**... tog‘ida bir aydahar boridi,**

**Aydaharga alp ... doridi.**

**Bunda yotgan aydaharni ko‘radi,**

**Ot tizginin munda tortib turadi.**

**Qayda borsang, ... yor bo‘lsin,**

**..... jilovdor bo‘lsin.**

**Dushmanlaring ko‘rsa, seni xor bo‘lsin,**

**Sog‘ borib, salomat kelgin, bek og‘a.**

### **2-guruh:**

**Bek ... o‘z yurtida qo‘l bergan,**

**..... degan piri bor di.**

**Falak titrar Qorajon nolishiga,**

**Banda ko‘nar Tangri qilgan ishiga.**

**Qibla betdan bir oy tug‘ib kelsalar,**

**Oy emasdir, ul ham .....**

**Oy girdidda to‘rtta yorug‘yulduz bor,**

**Yulduz emas, ..... muqarrar.**

O‘quvchilar quyidagi tushirib qoldirilgan so‘zlarni o‘rniga qo‘yishlari kerak bo‘ladi:  
Zil tog‘i, Qorajon, Shohimardon, o‘nikimom, chilton, Alpomish, Rajabxo‘ja, Rasul  
payg‘ambar, to‘rt choriyor.

## **7-ilova**

Topshiriq bajarib bo‘lingandan so‘ng, “Muammoli vaziyat” metodidan  
foydalangan holda quyidagi muammoli savollar o‘rtaga tashlanadi:

**1.Boybo‘ri o‘z ukasidan zakot so‘rab to‘g‘ri yo‘l tutdimi?**

**2. Otasining ra'yiga zid bo‘lsa-da, akasini xatarli safarga undayotgan  
Qaldirg‘ochning xatti-harakatlarini qanday baholaysiz?**

**3. Koreys xalq qahramonlari: Hayemosu, Jumong, Yuri;**

**O‘zbek xalq qahramonlari: Alpinbiy, Alpomish, Yodgor.**

**Savol: Nega ushbu ro‘yxatga Boybo‘ri bilan Boysarini kiritmadim?**

**“Qizil va yashil” metodi.** Bunda har bir guruhgaga dostondan parchalar o‘qib  
eshittiriladi. Ular jumlalar to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlab, parcha to‘g‘ri bo‘lsa,  
yashil, xato bo‘lsa, qizil kartochkalarni ko‘taradilar.

Dars so‘nggida darsni yakunlashdan oldin o‘quvchilarga “Doston sizga  
yoqdimi?” - degan savol bilan murojaat etadi va “Debriefing” jarayonida maqsadga  
erishganlik darajasi tahlil qilinadi, dars mavzusi xulosalanib, o‘quvchilar doston  
haqidagi fikrlarini bildiradilar.

**“Debriefing” bosqichlari:**

I bosqichda faktlarni aniqlaydilar. (*Nima sodir bo‘ldi?*)

II bosqich - sabablar tahlili. (*Nega shunday bo‘ldi?*)

III bosqich - harakatlarni rejalashtirish. (*Nima qilsa, shunday bo 'lmas edi?*)

### **Baholash.**

O‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirganliklari, qo‘yilgan muammoni savollarga o‘z nuqtayi nazarlarini asoslay bilishlari, guruhlarda ishlash jarayonida o‘zaro bir-birlari bilan munosabatlari kuzatilib, baholanadi.

Faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantirilib, baholangandan so‘ng, “Dars Qiroli” aniqlanib, ularga sovg‘alar taqdim etiladi.

### **Yakuniy fikrni aytib, uyga vazifa berish.**

“Alpomish” dostoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga yuksak hissa qo‘sghan asar hisoblanib, doston o‘zida yurt sog‘inchini mujassamlashtirgan, ona Vatanga muhabbat, do‘stga va yorga sadoqat kabi tuyg‘ularni badiiy jumlalarda ifodalay olgan xalqimizning sevimli dostonidir. Dostonni sinchiklab o‘qigan o‘quvchi unda ona Vatan, do‘st-u yorga bo‘lgan mehr va sadoqat naqadar chuqur aks etganligini his etadi. Dars “Alpomish” haqidagi she’r bilan yakunlanadi.

Uyga vazifa sifatida “Dostondan olgan taassurotlarim” mavzusida insho yozish beriladi.

## Xulosa

Bitiruv malakaviy ishimizning kirish qismida qayd etganimizdek, yosh avlodni, xususan umumta’lim mакtablaridagi o‘quvchilarni ma’naviy jihatdan yetuk, barkamol qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning roli beqiyos ekanligini yana bir bor ta’kidlamoqchimiz. Badiiy adabiyotsiz inson kim bo‘lishidan qat’iy nazar, ma’naviy barkamol inson bo‘lib shakllanishi nihoyatda mushkul. Shuning uchun ham yosh avlodni, umumta’lim mакtablarida adabiyot o‘qitishni yaxshi yo‘lga qo‘yish, yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tishni tashkil qilish masalalari kun tartibiga qo‘yildi. Bu masala davlat siyosati darajasidagi ko‘tarildi. Ayniqsa, umumta’lim mакtablarida bu ishning yaxshi yo‘lga qo‘yilishi lozimligi qator ta’lim bo‘yicha qabul qilingan rasmiy hujjatlarda tilga olindi, vazifalar belgilab berildi. Bu borada Respublikamizda bir qator muvaffaqiyatlarga ham erishildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi mакtablarda ta’lim sifatini zamon talablari darajasiga ko‘tarishda alohida bosqich bo‘ldi, deb bemalol ayta olamiz.

Mustaqillik yillarda barcha fanlar qatorida adabiyot fani bo‘yicha ham umumta’lim mакtablari uchun darsliklar yozildi, nashr etildi, amaliyatga joriy qilindi. Uslubshunos olimlar umumta’lim mакtablarida adabiyot o‘qitish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar nashr qildirdi. Mакtablarda adabiyot darslarini qanday usul va uslublarda o‘qitsa, yaxshi natijalar berishi mumkinligini amaliy qo‘llanmalarda ko‘rsatib berildi. Biz bu o‘rinda A. Zunnunov, S. Dolimov, S. Matjon, B. To‘xliyev, K. Yo‘ldashev, Mirqosimov, T. Boboyev, K. Husanxo‘jayeva, K. Jo‘rayev va boshqa yana o‘nlab olimlarning umumta’lim mакtablarida adabiyot darslarini o‘rganish usullari haqidagi qator kitoblari, maqolalarini tilga olib o‘tishni ma’qul ko‘rdik. Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida tilga olingan olimlarning tadqiqotlariga tayangan holda ish ko‘rdik. Umumta’lim mакtablarining 9-sinfida “Alpomish” dostonini o‘rganishda nimalarga e’tibor berish zarurligi to‘g‘risidagi qarashlarimizni bayon etdik va quyidagi xulosalarga keldik.

Ishimizning birinchi bobida “Alpomish” dostonining yaratilish tarixi va variantlari, qahramonlik dostonlarining o‘ziga xosligi: milliy ruh va an’analar”ni o‘rganish haqidagi metodik qarashlarimizni bayon etdik. Bu jarayonda o‘qituvchidan

juda katta bilim, ijodkorlik qobiliyati zarurligi bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish juda yaxshi samara berishini amaliy jarayonda ko'rib chiqdik.

Bitiruv malakaviy ishimizning ikkinchi – “Alpomish” dostonini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish” bobida dostonni o‘rganishdagi o‘ziga xosliklar, pedagogik texnologiya usullaridan, interfaol metodlardan foydalanish mumkinligi haqidagi fikrlarimizni bildirdik.

Adabiyot darslarini o‘tishda o‘qituvchida pedagogik mahorat bilan birga, nazariy bilim ham bo‘lishi lozim. Agar o‘qituvchi nazariy jihatdan savodli bo‘lsa har qanday badiiy asar haqida o‘zining shaxsiy nuqtai nazarlarini bildira oladi, o‘quvchilarini ham shunday fikrlashga o‘rgatadi. Adabiyot o‘qituvchisi faqat adabiyot darslaridagi ma’lumotlarni takrorlab qo‘ysa, o‘quvchilarni mavzuga qiziqtira olmaydi. Xalq og‘zaki ijodining qaysi namunasini o‘rgatmasin, o‘qituvchi darslikdan tashqari yangi ma’lumotlarni bersagina o‘quvchini qoniqtirishi, mavzuga qiziqtirishi mumkin. Bu esa o‘qituvchidan mustaqil ko‘p o‘qishini, ham amaliy, ham nazariy bilimga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida yana bir xulosaga keldikki, adabiyot o‘qituvchisi yangi pedagogik texnologiya usullari bilan puxta qurollangan, interfaol usullarni har bir mavzuga mos holda qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak. Texnik vositalar bo‘ladimi, monitor, internet materiallari, kompyuterdan ham unumli foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Shu vositalardan foydalansagina adabiyot o‘qituvchisining darsi qiziqrarli, mazmunli va zamon talablarida bo‘ladi.

Pedagogik amaliyot davomida o‘rganilgan va sinovdan o‘tkazilgan metodlar asosida “Alpomish - o‘zbek xalq qahramonlik dostoni” mavzusida ochiq dars mashg‘uloti o‘tkazildi. Ushbu darsda qo‘llanilgan metodlarning natijalari umumlashtirilib, dostonni o‘rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta ekanligi qayd etildi.

Dars o‘tish jarayonida interfaol usullarga murojaat etish, adabiyot darsligi, tarqatma materiallar, test, jadval, kompyuter, videoproyektor, audio, video kabi

vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, mavzuni qiziqarli yoritish va o‘quvchilar ongida mustahkam saqlanishi uchun “Bahs-munozara”, “Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash”, “Tushunchalar tahlili”, “Klaster”, “Sonlar tilga kirganda”, “Rolli o‘yin” kabi interfaol metodlarga murojaat etish yaxshi samara beradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Узлуксиз таълим тизимини дарслик билан таъминлашни такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори//Таълим тараққиёти, 1998, 1-сон.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” // Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Тошкент: Sharq, 1997.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Талим тўғрисида”ги қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Тошкент: Шарқ нашриёти-матбаа консерни. 1997.
4. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. - Toshkent: O’zbekiston, 2009.
5. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Т.: O’zbekiston, 2011.
6. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch - Т.: Ma’naviyat, 2008.
7. Каримов И. А. Юксак малакали мутахассислар - тараққиёт омили. - Тошкент: Ўзбекистон, 1995.
8. Alpomish (O’zbek xalq qahramonlik dostoni). – Toshkent: Sharq NMAK Bosh tahririyati, 2010-yil.
9. Алпомиш; Рустамхон/ (Сўзбоши муаллифи М.Муродов). - Т: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
10. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejallashtirish: O‘quv uslubiy qo‘llanma// Innovatsion ta’lim texnologiyasi seriyasi. – Т.: Iqtisodiyot, 2012.
11. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2009-yil.
12. Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li. – Toshkent: Muharrir, 2013.

13. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. - T.: Iste'dod, 2010.
14. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поетик ижоди. - Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
15. Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури. - Тошкент: Шарқ, 2001.
16. Мадаев Омонилла, Собитова Тожихон. Халқ оғзаки поетик ижоди: Академик литсейлар учун дарслик. - Т.: Шарқ, 2010.
17. Muhammedova Feruza. Darslarda zamonaviy metodlardan foylanish. Til va adabiyot ta'limi jurnali. // 2013, 12-son.
18. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. – Continuum. New York, 2011.
19. Niyazmetova T. Adabiy ta'lim muammolari. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2012.
20. Nurmonov A., Ikromov I., Boynazarov F. Yangi pedagogik texnologiya asoslari. (Interfaol darslar) Innovatsiya jarayoni. - T.: Falsafa va huquq instituti, 2007.
21. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.
22. Quronov Dilmurod va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010-yil.
23. Terhart E. Teacher education in Germany. – Bucharest: UNESCO-CEPES, 2003.
24. Тўхлиев Боқижон. Адабиёт ўқитиш методикаси. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2010.
25. Tolipov U. K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T., 2005.
26. Tolipov U. K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
27. Тўхлиев Боқижон. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.

28. Тўхлиев Боқижон. Адабиёт ўқитиши методикаси: амалий ва лаборатория машғулотлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012.
29. Тўра Мирзаев, Жаббор эшонқул, Селами Фидокор. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: Элмус-Пресс-медиа, 2007.
30. Xudoyberdiyev Erkin. Adabiyotshunoslikka kirish. - Toshkent: Sharq, 2008.
31. Yusupova Dilnavoz. Adabiyotdan universal qo‘llanma. - Toshkent: Akademnashr, 2014.
32. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Т.: O‘qituvchi, 2004.
33. Йўлдошев Қ. “Алпомиш” талқинлари ёки достон бадиияти ҳамда миллат маънавияти ҳақида айрим фикрлар. - Т.: Маънавият, 2002.
34. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiyo‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf uchun darslik, 1-qism. – Toshkent, 2014-yil
35. Фозил Йўлдош ўғли. Алпомиш. (Достон). (Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. Ёзиб оловчи Махмуд Зарифов. Кискартириб, биринчи марта нашрга тайёрловчи Ҳамид Олимжон. Қайта нашрга тайёрловчи: Ходи Зариф ва Тўра Мирзаев), Т.: Ўзбекистон, 1992.
36. Ёрматов И. Алпомиш достонининг жанр ва бадиий хусусиятлари. Фил. фан. докт. ...дисс. - Тошкент: 1994.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ” тўғрисидаги фармони. (Халқ сўзи, 2017-йил, 8-феврал).
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va forovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Т.: O‘zbekiston, 2017.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори // Халқ сўзи, 2017.
7. Муслимов Н.А., Уразова М.Б. Проективная деятельность будущего учителя. Учеб.пособие. – Т.: ГрандПапер, 2011.
8. Fayzullayeva D.M., G‘aniyeva M.A., Ne’matov I. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalari to‘plami / Met.qo‘ll. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida innovatsion ta’lim texnologiyalari seriyasidan – Т.: TDIU, 2013.
9. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно ориентированного образования. – Ростов-на-Дону: РГПУ, 2000.
10. Ishmuhamedov R. J. va b. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar: Iste’dod, 2010.
11. Mavlyanov A. va b. O‘quv maqsadlarini aniqlashtirish va ularni topshiriqlarga aylantirish texnologiyasi. – Т.: Tafakkur gulshani, 2015.
12. Mavlyanov A. va b. O‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash. – Т.: Tafakkur gulshani, 2015.
13. Bottino R.M., Forcheri P., Molino M.T. Technology Transfer in School: from Research to Innovation // British Journal of Educational Technology, 1998. № 2

### **Internet resurslari**

1. Aho E. Creating an Innovative Europe: [http://ec.europa.eu/invest-in-research/pdf/download\\_en/aho\\_report.pdf](http://ec.europa.eu/invest-in-research/pdf/download_en/aho_report.pdf).
2. <http://schools.keldysh.ru/labmro> - Методический сайт лаборатории методики и информационной поддержки развития образования МИОО.

3. www.bimm.uz
4. www.ziyonet.uz
5. www.edu.uz
6. www.referatlar.uz.
7. www.pedagog.uz.

## **Tayanch so'zlarning o'zbekcha-englizcha lug'ati**

Adabiyot - literature

Asar - composition

Badiiy asar - artistic composition

Bahs-munozara - discussion

Muammo - problem

Voqeа-hodisa - event

Zamonaviy - modern

Texnologiya technology

Ijod - creative work

Ijodkor - creator

Mazmun - content

Qissa - narrative

Doston - poem

Lirika - lyric poetry

Metod - method

Metodika - methodology

Mustaqil fikrlash - independent mind

Noan'anaviy - nottraditional

Xulosa - conclusion

Shoir - poet

Adabiy— literary environment

Mahorat - skill

Mumtoz adabiyot - classical literary

Ta'lim - education

Darslik - textbook

Maqsad - aim

Vazifa - task

Faol - active

Fikr - idea

Yangi - new

Dastur - reversing

Yozuvchi - writer

Rivojlantirmoq - develop

Tinglamoq - listen

Yechmoq - until

Yechim - unraveling

O'quvchi - pupil

Innovatsiya - innovation

Tushunmoq - understand

